**Annotatsiya.** Maqola biotexnologiya sohasida ishlab chiqarish sirlari (nou-xau)ning nazariy-huquqiy tahlilini amalga oshirishga qaratilgan. Nou-xau biotexnologik ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan amaliy bilim, texnik tajriba va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi, ammo ularning huquqiy tartibga solinishi turli yurisdiksiyalarda sezilarli darajada farqlanadi. Tadqiqot qiyosiy-huquqiy tahlil, doktrinal-tahlil va amaliy holatlarni o'rganish usullarini qo'llab, turli davlatlardagi nou-xau himoyasi tizimlarini baholaydi. Tadqiqotga ko'ra, anglo-sakson huquq tizimlarida nou-xau kengroq tijorat sirlari doirasida himoyalansa, Rossiya Federatsiyasi uni alohida intellektual mulk instituti sifatida ko'rib chiqadi. Maqolada O'zbekistonning joriy qonunchiligi nou-xauni tijorat sirlari himoyasi doirasiga kiritgan holda, biotexnologiyaga xos ishlab chiqarish sirlarini tartibga solish, ayniqsa, raqamli ma'lumotlar himoyasi, ixtisoslashgan texnik sohalarda xodimlar harakatchanligi va murakkab biotexnologik jarayonlarga mos keladigan samarali huquqiy himoya mexanizmlarini joriy etish zarurligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** biotexnologiya, intellektual mulk himoyasi, tijorat sirlari, ishlab chiqarish sirlari, nou-xau, raqamli texnologiyalar

## ПРОИЗВОДСТВЕННЫЕ СЕКРЕТЫ (НОУ-ХАУ) В СФЕРЕ БИОТЕХНОЛОГИЙ: ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

**Маманазаров Сардор Шухратович,**

доктор философии по юридическим наукам,

заведующий кафедрой «Английское право и право Европейского союза»

Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** Статья посвящена теоретико-правовому анализу производственных секретов (ноу-хау) в сфере биотехнологий. Ноу-хау включает совокупность практических знаний, технического опыта и навыков, необходимых для биотехнологического производства, однако его правовое регулирование в различных юрисдикциях существенно различается. В исследовании, с применением методов сравнительно-правового анализа, доктринального анализа и изучения практических случаев, оцениваются системы защиты ноу-хау в разных странах. Согласно результатам исследования, в правовых системах англосаксонской модели ноу-хау защищается в рамках более широкой категории коммерческой тайны, тогда как в Российской Федерации

оно рассматривается как самостоятельный институт интеллектуальной собственности. В статье обосновывается, что действующее законодательство Республики Узбекистан относит ноу-хау к системе защиты коммерческой тайны, однако в сфере биотехнологий существует необходимость дальнейшего совершенствования правового регулирования производственных секретов, в частности в части защиты цифровых данных, регулирования мобильности сотрудников в высокоспециализированных технических областях, а также создания правовых механизмов, адекватных сложным биотехнологическим процессам.

**Ключевые слова:** биотехнология, защита интеллектуальной собственности, коммерческая тайна, производственные секреты, ноу-хау, цифровые технологии

## SECRETS OF PRODUCTION (KNOW-HOW) IN THE FIELD OF BIOTECHNOLOGY: THEORETICAL AND LEGAL ANALYSIS

**Mamanazarov Sardor Shuhratovich,**  
Head of the Department of English Law  
and European Union Law,  
Tashkent State University of Law,  
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

**Abstract.** The article aims to conduct a theoretical and legal analysis of trade secrets (know-how) in the field of biotechnology. Know-how encompasses practical knowledge, technical experience, and skills necessary for biotechnological production, but their legal regulation differs significantly across various jurisdictions. The research employs comparative legal analysis, doctrinal analysis, and case study methods to evaluate know-how protection systems in different countries. According to the study, in common law systems, know-how is protected within the broader framework of trade secrets, whereas the Russian Federation treats it as a separate intellectual property institution. The article demonstrates that Uzbekistan's current legislation incorporates know-how within the framework of trade secret protection, while highlighting the need to improve regulation of production secrets specific to biotechnology, particularly regarding digital data protection, employee mobility in specialized technical fields, and legal protection mechanisms appropriate for complex biotechnological processes.

**Keywords:** biotechnology, intellectual property protection, trade secrets, production secrets, know-how, digital technologies

### Kirish

Biotexnologiya zamonaviy dunyoning muhim sohalaridan biri bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy transformatsiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Bu soha, ayniqsa, sog'liqni saqlash va oziq-ovqat tarmoqlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi (Singh, 2015). Biotexnologiya tirik organizmlar va jarayonlarni sanoatda qo'llash hamda hayot haqidagi bilimlarni chuqur o'rganishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, u farmatsevtika, ekinlar va chorvachilik kabi tarmoqlarda ishlatiladigan materiallar va organizmlarning qiymatini sezilarli darajada oshiradi. Shu sababli biotexnologiya sohasidagi muhim yutuqlar turli intellektual mulk muhofaza vositalari orqali himoya qilinadi.

Biotexnologiya sohasida ishlab chiqarish sirlari (nou-xau) himoyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish sirlari biotexnologik ishlab chiqarish muvaffaqiyati uchun zarur bo'lgan amaliy bilim, texnik tajriba va jarayon bilimlarini o'z ichiga oladi, ammo ko'pincha patentlanishi mumkin emas yoki strategik jihatdan maxfiylik mexanizmlari orqali yaxshiroq himoyalash mumkin.

“Ishlab chiqarish siri” atamasi ingliz tilidan kirib kelgan “nou-xau” (know-how) tushunchasi bilan bir xil ma’noni anglatadi. “Nou-xau” so’zma-so’z “buni qanday qilishni bilmoq” degan ma’noni bildiradi va bu, eng avvalo, amaliy ko’nikma va tajribani ifodalaydi. Aynan shu amaliy xususiyati tufayli nou-xau oddiy nazariy bilimdan farq qiladi. U sanoat va tijoriy faoliyatda qo’llanib, natijaga erishish usullarini o’z ichiga oladi. Biotexnologiya sohasida nou-xauning ahamiyati yanada oshadi, chunki bu yerda murakkab biologik jarayonlar, o’ta aniq muhit sharoitlari va maxsus texnikalar bilan ishlash talab etiladi. Mexanik qurilmalarni teskari muhandislik yordamida tahlil qilish va tushunish nisbatan oson bo’lsa-da, biotexnologik ishlab chiqarish jarayonlari bundan butunlay boshqacha. Bunday jarayonlardagi bilimlar ko’pincha yashirin bo’lib, ularni kitob yoki qo’llanmada to’liq tavsiflash deyarli mumkin emas. Shuning uchun bu bilimlarni faqat uzoq muddatli amaliy ish jarayonida, tajriba orttirish va doimiy o’rganish orqali egallash mumkin.

Ushbu maqolaning maqsadi biotexnologiyadagi ishlab chiqarish sirlari (nou-xau) uchun huquqiy himoya mexanizmlarini tahlil qilish va turli yurisdiksiyalarda ularning samaradorligini baholashdan iborat. Aniq maqsadlar quyidagilardan iborat:

1. Turli huquq tizimlarida nou-xau va tijorat sirlari o’rtasidagi konseptual farqlarni o’rganish.
2. Asosiy yurisdiksiyalarda nou-xau himoyasi tizimlarining qiyosiy tahlilini olib borish.
3. Ishlab chiqarish sirlarining biotexnologiyadagi sanoat yetakchilari tomonidan amalda qo’llanishini tahlil qilish.
4. Yangi raqamli texnologiyalarning nou-xau himoyasiga ta’sirini baholash.
5. O’zbekistonning joriy qonunchilik bazasini baholash va qonunchilikka o’zgartirishlar kiritish zaruriyatini aniqlash hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Ishlab chiqarish siri konsepsiyasining kelib chiqishi zamonaviy huquqshunoslikda turli yondashuvlar asosida o’rganilmoqda. Xususan, Kamenova va Lupandina (2020) ushbu konsepsiyaning tarixiy shakllanishini batafsil va chuqur tahlil qilgan. O’z navbatida, Bone (1998) ishlab chiqarish siri, ya’ni tijorat sirlari huquqini adolatsiz raqobat nazariyasi nuqtayi nazaridan asoslab, mazkur sohadagi huquqiy doktrinalarning rivojlanish bosqichlarini tadqiq etgan. *Kapczynski* (2022) esa ishlab chiqarish sirlarining ommaviy tarixini o’rganish orqali ushbu institutning jamiyat va iqtisodiyotdagi ahamiyatini ochib bergan. Boshqa tomondan, *Lemley* (2008) ishlab chiqarish sirlarini intellektual mulk huquqlari tizimida ko’rib chiqishning qanday ustunliklarga ega ekanligini tahlil qilgan. *Pooley* (2002) esa amaliyotchilar uchun keng qamrovli qo’llanma taqdim etib, shartnomaviy himoya mexanizmlarini batafsil yoritgan. *Aplin va Liddicoat* (2023) tibbiy texnologiyalar sohasida patentlar va tijorat sirlari o’rtasidagi murakkab munosabatlarni muhokama qilib, biotexnologiya uchun muhim bo’lgan maxsus masalalarni ko’rib chiqqan.

Ushbu tadqiqot doirasida bir nechta usullardan foydalanildi. Qiyosiy-huquqiy tahlil usuli yordamida turli mamlakatlar qonunchiligi solishtirildi. Har bir davlatda nou-xau tushunchasi hamda uning himoyasi qanday tushunilishi va qo’llanishi aniqlandi. Doktrinal tahlil usuli orqali nou-xau alohida intellektual mulk turi yoki tijorat sirlarining bir qismi ekanligini aniqlash maqsadida qonunlar, kodekslar, boshqa huquqiy hujjatlar va ilmiy manbalar chuqur o’rganildi. Amaliy holatlarni o’rganish usuli yordamida esa yirik biotexnologiya kompaniyalari, jumladan, *Pfizer*, *Sanofi*, *Chugai*, *Samsung Biologics*, *Genentech*, *Amgen*, *Roche* va *Novartis*ning tajribasi tahlil qilindi. Bu usullar majmuasi nou-xau himoyasi tizimining barcha qirralarini har tomonlama o’rganish va amaliy ahamiyatga ega xulosalar chiqarishga imkon berdi.

### Asosiy qism

Intellectual mulk huquqlari himoyasi yuksak darajada rivojlangan AQSHda ishlab chiqarish siri intellectual mulk huquqlarini himoya qilishda mustaqil huquqiy vosita sifatida emas, balki tijorat siri doirasida ko'riladigan omil tariqasida qo'llanadi. Ammo bevosita nou-xauni tartibga soladigan alohida huquqiy hujjat mavjud emas.

Yevropa Ittifoqining 2016-yil 8-iyundagi (EU) 2016/943 sonli Oshkor qilinmagan nou-xau va biznes ma'lumotlarini (tijorat sirlari) noqonuniy egallash, foydalanish va oshkor qilishdan himoya qilish to'g'risidagi direktivasiga ko'ra, tijorat sirlari biznes subyektlari tomonidan intellektual ijodkorlik va innovatsion nou-xaularni himoya qilishning eng keng qo'llanadigan shakllaridan biri hisoblanadi (European Union, 2016). Ushbu normadan shunday xulosa qilish mumkinki, nou-xau Yevropa Ittifoqida ham tijorat sirlari doirasida himoya qilinadi. Demak, AQSH va Yevropa davlatlarida biotexnologiya sohasida ishlab chiqarish sirlari tijorat sirlarining ajralmas qismi bo'lib, tijorat siri rejimida huquqiy himoyasi ta'minlanadi.

Biroq Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksida ishlab chiqarish siri (nou-xau)ga bo'lgan huquqlar bo'yicha alohida bob ajratilgan (75-bob). Kodeksning 1465-moddasiga ko'ra, ishlab chiqarish siri (nou-xau) deb har qanday xarakterdagi ma'lumotlar (ishlab chiqarish, texnik, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa), ilmiy-texnika sohasidagi intellektual faoliyat natijalari va professional faoliyatni amalga oshirish usullari haqidagi ma'lumotlar tan olinadi. Bular uchinchi shaxslarga noma'lum bo'lganligi sababli haqiqiy yoki potensial tijorat qiymatiga ega bo'lgan, uchinchi shaxslarning bunday ma'lumotlarga qonuniy asosda erkin kirish imkoniyati mavjud bo'lmagan va ushbu ma'lumotlar egasi ularning maxfiyligini saqlash uchun, jumladan, tijorat siri rejimini joriy etish yo'li bilan oqilona choralar ko'rgan ma'lumotlardir. Bundan tashqari, bob doirasida nou-xau alohida institut sifatida asosiy qoidalarni nazarda tutadi. Demak, Rossiyada biotexnologiya sohasidagi ishlab chiqarish sirlari alohida huquqiy institut sifatida muhofaza qilinadi.

Garchand milliy qonunchiligimiz tajribasi ko'p jihatdan Rossiya qonunchiligiga yaqin bo'lsa-da, ishlab chiqarish siri Fuqarolik kodeksimizda ikki o'rinda, xususan, intellektual mulk obyekti sifatida sanash va oshkor etilmagan axborotni muhofaza qilish huquqi doirasida tijorat siri tarkibi sifatida aytib o'tish bilan cheklanilgan. Kodeksda ishlab chiqarish siri alohida fuqarolik huquqi instituti sifatida tartibga solinmagan. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-dekabrda 979-son qarorida ishlab chiqarish sirlari (nou-xaular) tijorat siri rejimida himoya qilinadigan intellektual mulk obyekti sifatida qayd etib o'tilgan. Aytishimiz mumkinki, milliy qonunchiligimizda biotexnologiya sohasidagi ishlab chiqarish sirlari bevosita tijorat sirlari instituti doirasida muhofaza etiladi.

Bizningcha, nou-xau keng ma'noda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan biror narsani biznesda qanday yoki osonroq qo'llash bo'yicha har qanday ommaviy bo'lmagan ma'lumotlarni anglatadi. Bu atama juda keng qamrovli bo'lib, uning mohiyati muhokama qilinayotgan bilimga bog'liq. Odatda, nou-xau biror narsadan foydalanishni osonlashtiruvchi yoki qiyinchilikni kamaytiradigan bilimlarni tavsiflaydi. Bu biotexnologiya sohasidan mahsulotni qanday yaratish yoki biznesni boshqarish kabi masalalarni ham qamrab olishi mumkin bo'lgan tijorat sirlari rejimining bir qismi hisoblanadi. Nou-xau huquqiy himoyalangan bilim bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Agar nou-xau tijorat sirini himoya qilish talablariga javob bersa, nou-xau yaratuvchisi tijorat sirlari ustidan nomoddiy mulk huquqlarini saqlab qoladi va tijorat sirlarining noto'g'ri ishlatilishi uchun zararni qoplash bo'yicha huquqiy himoya vositalariga ega bo'ladi.



Biotexnologiya kompaniyalari o'zlarining nou-xaularini himoya qilish uchun shartnomaviy mexanizmlardan keng foydalanadi va bu jarayonga katta hajmdagi vaqt hamda moliyaviy resurslar sarflaydi. Kompaniyalar, birinchi navbatda, o'z xodimlari va biznes hamkorlari bilan tuzadigan shartnomalar orqali maxfiylikni ta'minlashga harakat qiladi. Bunday hollarda ikkinchi tomon qat'iy shartnomaviy majburiyat ostida nou-xauni hech qachon oshkor qilmaslik va maxfiy saqlash bo'yicha o'z zimmasiga mas'uliyat oladi. Bu esa, o'z navbatida, nou-xau yaratuvchisiga har qanday ruxsatsiz oshkor qilish yoki suiiste'mol qilish holatlari yuzaga kelganda, shartnomaviy himoya vositalari orqali o'z huquqlarini himoya qilish imkoniyatini beradi.

Biotexnologiya sohasida yirik kompaniyalarning ishlab chiqarish sirlari himoyasi amaliyoti turli yondashuvlarni namoyish etadi. "Pfizer" kompaniyasining biologik dorilar ishlab chiqarish bo'yicha ishlab chiqarish sirlari portfeli yuzlab maxfiy texnologik jarayonni o'z ichiga oladi (Genentech Inc., 2023) va bu bilimlar kompaniyaning biosimilar dorilar bozorida raqobat ustunligini saqlab qolishida muhim rol o'ynaydi.

Yevropa amaliyotida "Sanofi" kompaniyasi insulin ishlab chiqarish bo'yicha 100 yillik tajribaga ega bo'lib (Bosnyak et al., 2020), uzoq muddatli tajriba orqali o'z ustunligini mustahkamlagan. Yaponiyada esa "Chugai" kompaniyasi – Roche'ning Yaponiya bo'limi – antikor ishlab chiqarish bo'yicha ishlab chiqarish sirlarini tijorat sirlari va patentlar kombinatsiyasi orqali himoya qiladi (Chugai Pharmaceutical Co., Ltd., 2017). Janubiy Koreyaning "Samsung Biologics" kompaniyasi esa biosimilar ishlab chiqarish bo'yicha ishlab chiqarish sirlarini maxfiylik shartnomalari (confidentiality agreements) orqali muhofaza qilish strategiyasini qo'llaydi (Fierce Pharma, 2025).

Biroq zamonaviy biotexnologiya sohasida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ishlab chiqarish sirlari himoyasida yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bulutli hisoblash (cloud computing), katta ma'lumotlar tahlili (Big Data analytics) va sun'iy intellekt (AI) kabi ilg'or texnologiyalar an'anaviy himoya mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda (Hernandez, 2013). Masalan, IBM kompaniyasining Dori kashfiyoti uchun Watson (Watson for Drug Discovery) platformasi kabi sun'iy intellekt tizimlari biotexnologiya kompaniyalariga katta imkoniyatlar yaratsa-da, ayni paytda ishlab chiqarish sirlarini himoya qilish bo'yicha murakkab masalalarni ham keltirib chiqaradi (Intuition Labs, 2025). Ayniqsa, maxfiy ma'lumotlarni bulutga yuklash jarayonida ularning xavfsizligini ta'minlash alohida e'tibor va ehtiyotkorlik talab etadi.

Shu bilan birga, blokcheyn texnologiyasi ishlab chiqarish sirlari himoyasida yangi va istiqbolli imkoniyatlar yaratmoqda. "VeChain" kompaniyasining farmatsevtika ta'minot zanjiri uchun ishlab chiqilgan platformasi ma'lumotlarni kriptografik himoya bilan ta'minlash orqali zamonaviy xavfsizlik talablariga javob beradi (Verma, 2024). Yurisdiksiyalar nou-xauni alohida intellektual mulk instituti (Rossiya Federatsiyasi) yoki tijorat sirlari doirasida (Amerika Qo'shma Shtatlari, Yevropa Ittifoqi, O'zbekiston) ko'rib chiqishi o'rtasidagi tafovutlar turli huquqiy falsafalar va amaliy mulohazalarni aks ettiradi.

Rossiya Federatsiyasining ishlab chiqarish sirlarini Fuqarolik kodeksida alohida bob sifatida ko'rib chiqishi bir qator muhim afzalliklarga ega. *Birinchi*dan, bunday yondashuv konseptual aniqlikni ta'minlaydi. Nou-xauning o'ziga xos xususiyatlari, xususan, uning amaliy va tajribaviy tabiati hamda texnik, tashkiliy va protsessual elementlarning o'ziga xos kombinatsiyasi aniq tan olinadi.

*Ikkinchi*dan, alohida huquqiy tartibga solish nou-xauga xos masalalar, masalan, xodimlar tomonidan yaratilgan nou-xau egaligi, litsenziyalash murakkabliklari va qiymat baholash metodologiyalari uchun maxsus qoidalar ishlab chiqish imkonini beradi.

*Uchinchidan*, nou-xauning alohida kategoriya sifatida e'tirof etilishi biznes subyektlari orasida uning iqtisodiy qiymati va himoyasi muhimligi haqida xabardorlikni oshiradi hamda ishlab chiqarish bilimlarini yanada strategik boshqarishni rag'batlantiradi.

Shu bilan birga, anglo-sakson va Yevropa amaliyotida qo'llanadigan yondashuv, ya'ni nou-xauni tijorat sirlari doirasida integratsiyalash ham o'ziga xos qator ustunliklarga ega. *Birinchidan*, amaliyotda ishlab chiqarish bilimini boshqa maxfiy biznes ma'lumotlaridan aniq ajratish ko'pincha qiyin yoki hatto mumkin emas, shuning uchun integratsiyalashgan doiralar sun'iy chegaralardan qochib, barcha turdagi maxfiy bilimlarni yaxlit ravishda himoya qiladi.

*Ikkinchidan*, xalqaro savdo tashkilotining TRIPS kelishuvi 39-moddasi nou-xauni alohida ajratmagan holda, tijorat sirlari himoyasi standartlarini belgilaydi (World Trade Organization, 1994). Bu esa xalqaro uyg'unlashuvni ta'minlaydi va transchegaraviy himoyani sezilarli darajada osonlashtiradi.

*Uchinchidan*, yagona himoya doiralari huquqiy murakkablikni kamaytiradi va turli kategoriyalar o'rtasidagi chegaralarni aniqlash bilan bog'liq sudlov ishlarini qisqartiradi. Bunda e'tibor ma'lumotning "nou-xau" yoki "tijorat siri" ekanligini aniqlashga emas, balki maxfiylik, tijorat qiymati va oqilona himoya choralari kabi funksional himoya talablariga qaratiladi.

Turli yurisdiksiyalardagi huquqiy yondashuvlar o'rtasidagi sezilarli farqlar, biotexnologik jarayonlarning o'ziga xos texnik murakkabliklari va zamonaviy raqamli texnologiyalar ta'sirining kuchayishi ushbu sohada nou-xau himoyasini zamonaviy intellektual mulk huquqlarining eng murakkab masalalaridan biriga aylantirmoqda. Biotexnologiya ishlab chiqarish sirlarining fundamental xususiyatlari, yashirin bilim komponentining yuqori ulushi, ko'p parametrlil jarayonlarning murakkab o'zaro bog'liqligi va raqamli ekotizimga bog'liqlikning ortishi an'anaviy tijorat sirlari himoyasi mexanizmlarini qo'llashda yangi paradigmlar shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Raqamli transformatsiya davrida biotexnologiya sohasidagi nou-xau himoyasi ikki tomonlama paradoks bilan yuzlashmoqda. Bir tomondan, kiber-xavflar spektrining kengayishi, tasodifiy ma'lumot oshkor qilish riskining keskin oshishi va global raqamli ekotizimlarning kuchayib borayotgan o'zaro bog'liqligi ishlab chiqarish sirlarini himoya qilishning murakkabligini sezilarli darajada oshirmoqda. Boshqa tomondan esa sun'iy intellekt asosidagi xavfsizlik tizimlari, blokcheyn texnologiyalarining kriptografik imkoniyatlari va raqamli huquqlarni boshqarishning ilg'or mexanizmlari nou-xau himoyasida yangi strategik imkoniyatlar yaratmoqda. Bu holat biotexnologiya kompaniyalarini an'anaviy himoya usullarini zamonaviy texnologik yechimlar bilan birlashtirishga undamoqda.

Qiyosiy-huquqiy tahlil natijalariga ko'ra, turli yurisdiksiyalarda nou-xau institutining konseptual asoslari sezilarli darajada farqlanadi. Rossiya Federatsiyasining nou-xauni mustaqil intellektual mulk instituti sifatida tan olishi anglo-sakson va Yevropa yondashuvlaridan tubdan farq qiladi va bu farq xalqaro hamkorlik hamda texnologiya transferida qo'shimcha huquqiy murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Natijada global biotexnologiya bozorida faoliyat yuritadigan kompaniyalar har bir davlatning o'ziga xos huquqiy tizimini hisobga olgan holda, ishlab chiqarish sirlarini himoya qilish strategiyalarini ishlab chiqishlari zarur bo'lmoqda.

O'zbekiston qonunchiligida ishlab chiqarish siri hozirda Fuqarolik kodeksida ikki o'rinda, ya'ni intellektual mulk obyekti sifatida sanash va tijorat siri tarkibi sifatida aytib o'tish bilan cheklangan. Mamlakatimizda biotexnologiya sohasining istiqboldagi rivojlanishi va xalqaro hamkorlikning kuchayib borayotganligini hisobga olgan holda, quyidagi takliflarni ilgari

surish maqsadga muvofiqdir. *Birinchidan*, Fuqarolik kodeksiga alohida bob kiritish orqali ishlab chiqarish sirlarini (nou-xauni) mustaqil intellektual mulk instituti sifatida tartibga solish zarur. Bu bob nou-xau ta’rifi, unga doir huquqlar vujudga kelishi va amalga oshirilish tartibi, litsenziyalash mexanizmlari, xodimlar tomonidan yaratilgan nou-xau egaligi masalalari va qiymat baholash metodologiyalarini qamrab olishi lozim. *Ikkinchidan*, biotexnologiya sohasidagi ishlab chiqarish sirlarini raqamli muhitda himoya qilish bo’yicha maxsus normalar ishlab chiqish talab etiladi. Bunda bulutli texnologiyalar, sun’iy intellekt tizimlari va katta ma’lumotlar tahlili qo’llanganda, maxfiylikni ta’minlash talablari aniq belgilanishi kerak.

*Uchinchidan*, biotexnologiya kompaniyalari uchun nou-xau himoyasi bo’yicha amaliy yo’riqnomalar va standartlar ishlab chiqish hamda tegishli davlat organlari tomonidan monitoring mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu chora-tadbirlar O’zbekistonda biotexnologiya sohasining innovatsion rivojlanishini ta’minlash, xalqaro standartlarga muvofiqlikni oshirish va milliy intellektual mulk tizimini mustahkamlashga xizmat qiladi.

### Xulosa

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, ishlab chiqarish sirlari (nou-xau) biotexnologiyada intellektual mulk himoyasining muhim komponenti hisoblanadi. Yirik biotexnologiya kompaniyalari amaliyoti nou-xau patent muddati tugagandan keyin ham uzoq muddatli raqobat ustunligini saqlashda hal qiluvchi rol o’ynashini isbotlamoqda. Hozirgi vaqtda O’zbekistonda nou-xau tijorat sirlari rejimida himoyalangan bo’lsa-da, biotexnologiya sohasining mamlakatimizda jadal rivojlanishi va sohadagi xalqaro hamkorlik yanada takomillashtirilgan huquqiy tartibga solishni talab qilmoqda. Ayni paytda raqamli transformatsiya davri, bir tomondan, nou-xau himoyasi uchun yangi qiyinchiliklar keltirib chiqarsa, boshqa tomondan, blokcheyn va sun’iy intellekt texnologiyalari orqali ilgari mavjud bo’lmagan imkoniyatlar ham yaratmoqda. Shu sababli O’zbekiston uchun Fuqarolik kodeksiga nou-xau bo’yicha alohida bob kiritish, raqamli muhitda himoya talablarini aniq belgilash hamda amaliy yo’riqnomalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi milliy biotexnologiya sohasining innovatsion rivojlanishini ta’minlash, xalqaro standartlarga muvofiqlikni oshirish va mamlakatimizni global biotexnologiya ekotizimiga muvaffaqiyatli integratsiyalashga xizmat qiladi.

### REFERENCES

1. Aplin, T. F., & Liddicoat, J. (2023). Discussion paper on the interplay between patents and trade secrets in medical technologies. *SSRN Electronic Journal*. <https://doi.org/10.2139/ssrn.4606923>
2. Bone, R. G. (1998). A new look at trade secret law: Doctrine in search of justification. *California Law Review*, 86(2), 241–313. <https://doi.org/10.2307/3481143>
3. Bone, R. G. (2009). Trade secrecy, innovation, and the requirement of reasonable secrecy precautions. *Boston University School of Law Working Paper*, 09-40. <https://ssrn.com/abstract=1467723>
4. Bosnyak, Z., Korn, M., Bielohuby, M., Wohlfart, P., & Tennagels, N. (2020). Nearly a century of insulin at Sanofi: Looking back over the decades of production and development. *Pediatric Endocrinology Reviews*, 17(1), 161. <https://doi.org/10.17458/per.vol17.2020.bkb.sanoficenturyinsulin>
5. Chugai Pharmaceutical Co., Ltd. (2017). *Annual report 2017*. [https://www.chugai-pharm.co.jp/english/ir/reports\\_downloads/annual\\_reports/files/eAR2017\\_12\\_11.pdf](https://www.chugai-pharm.co.jp/english/ir/reports_downloads/annual_reports/files/eAR2017_12_11.pdf)

6. European Union. (2016). 2016/943 of the European Parliament and of the Council of 8 June 2016 on the protection of undisclosed know-how and business information (trade secrets) against their unlawful acquisition, use and disclosure. *Official Journal of the European Union*, L157/1. <https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2016/943/oj/eng>
7. Fierce Pharma. (2025, May 22). CDMO Samsung Biologics telegraphs spinoff of biosimilar unit. <https://www.fiercepharma.com/manufacturing/cdm-samsung-biologics-telegraphs-spinoff-biosimilars-subsidiary-bioepis-citing>
8. Genentech Inc. (2023). *Annual report form 10-K: Trade secrets portfolio*. U.S. Securities and Exchange Commission.
9. Civil Code of the Russian Federation. (2025, July). Part Four of December 18, 2006 No. 230-FZ. <https://base.garant.ru/10164072/aca05a383e5fafa508271522dd5a4b23/>
10. Hernandez, G. L. (2013). Trade secret protection... in the cloud. *Entertainment Law Review*, 7–24. <https://ssrn.com/abstract=2912905>
11. Intuition Labs. (2025, April 19). IBM's role and relevance in the pharmaceutical industry (U.S. focus). [https://intuitionlabs.ai/articles/ibm-relevance-pharma-industry?utm\\_source=chatgpt.com](https://intuitionlabs.ai/articles/ibm-relevance-pharma-industry?utm_source=chatgpt.com)
12. Kamenova, P. V., & Lupandina, O. A. (2020). Legal protection of know-how in international commercial transactions. *Moscow State University Journal of Law*, 3, 78–4.
13. Kapczynski, A. (2022). The public history of trade secrets. *UC Davis Law Review*, 55. <https://ssrn.com/abstract=4138402>
14. Lemley, M. A. (2008). The surprising virtues of treating trade secrets as IP rights. *Stanford Law Review*, 61(2), 311–353.
15. Pooley, J. (2002). *Trade secrets*. Law Journal Press.
16. Singh, K. K. (2015). *Biotechnology and intellectual property rights: Legal and social implications*. Springer India. <https://doi.org/10.1007/978-81-322-2059-6>
17. Verma, V. (2024). Unveiling the power of blockchain in pharmaceutical supply chains: Strengthening security and improving drug traceability. *El-Cezeri Journal of Science and Engineering*, 11(2), 142–151. <https://doi.org/10.31202/ecjse.1338782>
18. World Intellectual Property Organization. (2020). *Guide to trade secrets and innovation: Part II, Strategic roles of trade secrets in the innovation ecosystem*. WIPO. <https://www.wipo.int/web-publications/wipo-guide-to-trade-secrets-and-innovation/en/part-ii-strategic-roles-of-trade-secrets-in-the-innovation-ecosystem.html>
19. World Trade Organization. (1994). *Agreement on trade-related aspects of intellectual property rights (TRIPS)*, Article 39. WTO.

Kelib tushgan / Получено / Received: 18.10.2025  
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 12.12.2025  
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.uzlawrev.2.4./WOIE8232

UDC: 347.1(045)(575.1)

## O'ZBEKISTON FUQAROLIK HUQUQIDA DELIKT MAJBURIYATINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

**Allakuliyev Mirjalol Davronbekovich,**

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0009-3362-2643

e-mail: allakuliyevmirjalol1@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqida delikt majburiyatlari (zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar) institutini qo'llash bilan bog'liq muammolarning tanqidiy tahliliga bag'ishlangan. Tadqiqot doirasida Fuqarolik kodeksida belgilangan normativ qoidalar bilan huquqni qo'llash amaliyoti o'rtasidagi nomutanosibliklar o'rganiladi. Mazkur tafovut, avvalo, zararni qoplash masalasida ma'muriy-huquqiy va jinoiy-huquqiy yondashuvlarning ustunligi, shuningdek, buning natijasida jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararlarning fuqarolik-huquqiy mexanizmlar orqali emas, balki boshqa huquqiy vositalar yordamida qoplanayotganida namoyon bo'ladi. Muallif anglo-amerika va Kontinental Yevropa huquq tizimlariga mansub rivojlangan xorijiy yurisdiksiyalar qonunchiligi hamda sud amaliyotining qiyosiy-huquqiy tahlili asosida O'zbekistonda delikt majburiyatlarini huquqiy tartibga solishdagi asosiy kamchiliklarni aniqlaydi. Jumladan, zarar miqdorini hisoblashning batafsil va aniq uslublarining mavjud emasligi, zararni qoplash huquqini amalga oshirishga doir protsessual mexanizmlarning yetarlicha rivojlanmagani, sud organlarining ushbu sohada ixtisoslashmaganligi hamda barqaror huquqni qo'llash amaliyotining shakllanmaganligi ta'kidlanadi. Tadqiqot yakunida qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan qator ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** delikt majburiyati, zararni qoplash, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, qurilishdagi nuqsonlar, yo'l-transport hodisalari, zararni hisoblash uslubiyoti, qiyosiy huquqshunoslik, huquqni qo'llash amaliyoti

### ПРОБЛЕМЫ РЕАЛИЗАЦИИ ДЕЛИКТНЫХ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ В ГРАЖДАНСКОМ ПРАВЕ УЗБЕКИСТАНА: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ И ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

**Аллакуллиев Миржалол Давронбекович,**

самостоятельный соискатель Ташкентского  
государственного юридического университета

**Аннотация.** Данная статья посвящена критическому анализу проблем, связанных с применением института деликтных обязательств (обязательств, возникающих вследствие



причинения вреда) в гражданском праве Республики Узбекистан. В рамках исследования изучаются несоответствия между нормативными положениями, закреплёнными в Гражданском кодексе, и правоприменительной практикой. Указанное расхождение прежде всего проявляется в вопросах возмещения вреда, где на практике наблюдается преобладание административно-правовых и уголовно-правовых подходов, в результате чего компенсация вреда потерпевшим зачастую обеспечивается не гражданско-правовыми механизмами, а посредством иных правовых средств. Автор на основе сравнительно-правового анализа законодательства и судебной практики развитых зарубежных юрисдикций, относящихся к англо-американской и континентально-европейской правовым системам, выявляет ключевые недостатки правового регулирования деликтных обязательств в Узбекистане. В частности, подчёркивается отсутствие детализированных и чётких методик расчёта размера вреда, недостаточная развитость процессуальных механизмов реализации права на его возмещение, отсутствие специализации судов в данной сфере, а также несформированность устойчивой правоприменительной практики. В завершение исследования выдвигается ряд научно-практических предложений, направленных на совершенствование законодательства и правоприменительной деятельности в данной области.

**Ключевые слова:** деликтное обязательство, возмещение вреда, гражданско-правовая ответственность, строительные дефекты, дорожно-транспортные происшествия, методика расчёта ущерба, сравнительное правоведение, правоприменительная практика

## CHALLENGES IN THE IMPLEMENTATION OF TORT LIABILITY IN THE CIVIL LAW OF UZBEKISTAN: COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS AND WAYS TO IMPROVE

**Allakuliev Mirjalol Davronbekovich,**

Independent Researcher at Tashkent State University of Law

**Abstract.** This article is devoted to a critical analysis of the problems associated with the application of the institution of tort liability (liability arising from causing harm) in the civil law of the Republic of Uzbekistan. Within the framework of the study, the discrepancies between the normative provisions established in the Civil Code and law enforcement practice are studied. This difference is manifested, first of all, in the predominance of administrative-legal and criminal-legal approaches in the matter of compensation for damages, as well as in the fact that the damage caused to victims as a result of this is compensated not by civil-legal mechanisms, but by other legal means. Based on a comparative legal analysis of the legislation and judicial practice of developed foreign jurisdictions belonging to the Anglo-American and Continental European legal systems, the author identifies the main shortcomings in the legal regulation of tort liability in Uzbekistan. In particular, the absence of detailed and accurate methods for calculating the amount of damage, insufficient development of procedural mechanisms for exercising the right to compensation for damage, the lack of specialization of judicial bodies in this area, and the absence of a stable law enforcement practice are noted. At the end of the study, a number of scientific and practical proposals aimed at improving legislation and law enforcement practice will be put forward.

**Keywords:** tort liability, compensation for damages, civil liability, construction defects, traffic accidents, methodology for calculating damages, comparative law, law enforcement practice

### Kirish

Delikt majburiyati instituti har qanday zamonaviy davlat fuqarolik huquqining asosiy elementlaridan biri bo'lib, xususiylar manfaatlar muvozanatini ta'minlaydi va fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining buzilgan huquqlarini tiklaydi. Ushbu institutning samarali

faoliyat yuritishi huquq tizimining yetukligi va fuqarolar huquqlarining himoyalanganlik darajasining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar to'g'risidagi kengaytirilgan bobni (57-bob) o'z ichiga oladi. Ushbu bobda delikt majburiyatining umumiy tamoyillari, deliktlarning maxsus tarkiblari va turli zararlarni qoplash mexanizmlari mustahkamlab qo'yilgan. Fuqarolik kodeksining 985-moddasida g'ayriqonuniy harakatlar tufayli fuqaroning shaxsi yoki mol-mulki, shuningdek, yuridik shaxsga yetkazilgan zararni to'liq qoplashning asosiy prinsipi belgilangan.

Biroq O'zbekistonda delikt normalarini qo'llash amaliyoti qonunchilik qoidalarini va jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilishning real mexanizmi o'rtasida jiddiy tafovut mavjudligini ko'rsatmoqda. Huquqni qo'llash amaliyotining tahlili tizimli muammolardan dalolat beradi: fuqarolarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilganda, huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlari, asosan, aybdor shaxsga nisbatan ma'muriy sanksiyalar yoki jinoiy jazoni qo'llashga e'tibor qaratadi, shu bilan birga, zararni bevosita jabrlanuvchiga qoplab berishning fuqarolik-huquqiy jihati yuridik tartib-taomillarning asosiy e'tiboridan chetda qolib ketmoqda. Aybdor shaxs davlat byudjeti foydasiga jarima to'laydi, ma'muriy yoki jinoiy jazoni o'taydi, ammo jabrlanuvchi ko'pincha ko'rilgan mulkiy va ma'naviy zarar uchun real kompensatsiyasiz qoladi.

Mazkur muammo delikt huquqiy munosabatlarining ikkita ommaviy sohasida, ayniqsa, loyihalash yoki qurilishdagi nuqsonlar oqibatida qurilish obyektlarining qulashi hamda fuqarolar sog'lig'iga zarar yetkazilgan yo'l-transport hodisalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Har ikki holatda ham amaliyot jabrlanuvchilar o'zlarining O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan milliy qonunchilikda ham, inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarda ham mustahkamlab qo'yilgan zararni qoplashga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirishda jiddiy to'siqlarga duch kelayotganini ko'rsatmoqda.

Tadqiqotning dolzarbligi nafaqat qonunchilik bilan tartibga solish va huquqni qo'llash amaliyoti o'rtasidagi nomuvofiqlik muammosining nazariy ahamiyati, balki mamlakatning faol iqtisodiy rivojlanishi va urbanizatsiyasi sharoitida fuqarolarning mulkiy manfaatlari real himoya qilinishini ta'minlashning amaliy zarurati bilan ham belgilanadi. Ushbu tadqiqot ishining maqsadi O'zbekistonda delikt majburiyatini amalga oshirish mexanizmining tizimli kamchiliklarini aniqlash va xorijiy tajribani tanqidiy tahlil qilish asosida qonunchilik hamda huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

### **Asosiy qism**

Zamonaviy huquqiy doktrinada delikt majburiyati xususiy huquq instituti sifatida ko'rib chiqiladi. Uning maqsadi zarar yetkazuvchining g'ayriqonuniy harakatlari oqibatida jabrlanuvchining buzilgan mulkiy holatini tiklashdir.

Delikt majburiyatining ma'muriy va jinoiy javobgarlikdan asosiy farqi huquqiy munosabatning tabiati va subyekt tarkibidadir, ya'ni delikt xususiy shaxslar o'rtasidagi gorizontaal huquqiy munosabatni anglatadi, bunda davlat faqat zararni qoplash majburiyatining bajarilishini kafolatlovchi sifatida ishtirok etadi. Ma'muriy va jinoiy javobgarlik esa aksincha, davlat va huquqbuzar o'rtasidagi vertikal huquqiy munosabatlar hisoblanadi (Rahmonqulov, 2005).

Anglo-amerika huquqiy doktrinasida haqli ravishda ta'kidlanganidek, delikt huquqining asosiy maqsadi jabrlanuvchiga kompensatsiya berish bo'lsa, jinoyat huquqi jazolash va umumiy ogohlantirish maqsadlarini ko'zlaydi (Legal Information Institute, n.d.).

Ushbu tamoyil Pandekt yondashuviga asoslangan Germaniya huquq tizimida, xususan, Germaniya Fuqarolik kodeksining 823-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur norma shaxsning hayoti, tanasi, sog'lig'i, erkinligi, mulki yoki boshqa subyektiv huquqlariga aybi bilan zarar yetkazgan shaxsning yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha umumiy majburiyatini belgilaydi (Oxford University, n.d.). Shu bilan birga, Germaniya sud amaliyotida kompensatsiya miqdorini aniqlashning batafsil va aniq mexanizmlari ishlab chiqilgan bo'lib, jumladan, sog'liqqa yetkazilgan zararni baholashda maxsus jadvallardan (Schmerzensgeldtabellen) foydalaniladi. Bu esa sud qarorlarining oldindan prognoz qilinishi, barqarorligi va bir xilligini ta'minlashga xizmat qiladi (Anthony, 2001).

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi mazkur prinsiplarni rasman mustahkamlamoqda. Fuqarolik kodeksining 985-moddasida zarar yetkazgan shaxs tomonidan zararni, shu jumladan, olinmay qolgan foydani ham to'liq qoplash to'g'risidagi umumiy qoida belgilangan. Biroq amaliyotda ushbu prinsipning qo'llanishi natijasida protsessual mexanizmlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, zararni hisoblashning yagona uslublari yo'qligi va huquqbuzarliklarga nisbatan ommaviy-huquqiy yondashuv ustunligida namoyon bo'layotgan tizimli muammolar yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi huquqni qo'llash amaliyotining asosiy muammosi zararni fuqarolik-huquqiy qoplash ustidan ma'muriy va jinoiy sanksiyalarga tizimli ravishda ustunlik berish hisoblanadi. Fuqaroga zarar yetkazadigan huquqbuzarlik sodir bo'lganda, huquqni muhofaza qilish organlari aybdor shaxsga nisbatan ma'muriy yoki jinoiy ta'qib boshlaydi. Natijada davlat byudjeti foydasiga jarima yoki boshqa ommaviy-huquqiy jazo tayinlanadi. Shu bilan birga, bevosita jabrlanuvchiga zararni qoplab berish masalasi yo umuman ko'tarilmaydi, yoki jinoiy yoxud ma'muriy jarayon tugagandan so'ng fuqarolik sudiga murojaat qilish taklifi bilan noma'lum muddatga qoldiriladi (Bozarov, 2023).

Bunday yondashuv huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro standartlarga ziddir. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1985-yilda qabul qilingan "Jinoyatlar va hokimiyatni suiiste'mol qilish qurbonlari uchun adolatning asosiy tamoyillari" jabrlanuvchilarning adolatli va munosib kompensatsiya olish, shu jumladan, huquqbuzardan restitutsiya olish huquqini mustahkamlaydi (United Nations, 1985). 1983-yildagi Zo'ravonlik jinoyatlari qurbonlariga kompensatsiya to'lash to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi ham g'ayriqonuniy harakatlardan jabrlangan shaxslar uchun kompensatsiyadan real foydalanishni ta'minlash muhimligini ta'kidlaydi (Council of Europe, 1983).

Rivojlangan huquqiy tizimlarda jinoyat va fuqarolik jarayonlari o'rtasida aniq protsessual farq mavjud, ammo qonunchilik jabrlanuvchining kompensatsiya olish huquqini amalga oshirishni yengillashtiradigan mexanizmlar yaratadi. Anglo-amerika tizimida jabrlanuvchi bir vaqtning o'zida jinoiy jarayonda ayblovlari guvohi va zararni qoplash to'g'risidagi fuqarolik ishida da'vogar bo'lishi mumkin, bunda mazkur jarayonlar parallel ravishda olib boriladi (English Tort Law, n.d.). Fransiyada jinoiy jarayonda fuqarolik da'vosi instituti mavjud bo'lib, u jabrlanuvchiga zararni qoplash talabini bevosita jinoiy ish doirasida qo'yish imkonini beradi, bu esa tartib-taomilni sezilarli darajada soddalashtiradi va xarajatlarni kamaytiradi (Yakovenko, 2022). Germaniya qonunchiligi ham fuqarolik da'vosini jinoiy ishga qo'shish imkoniyatini nazarda tutib, jabrlanuvchi manfaatlarining samarali himoyasini ta'minlaydi (German Civil Code, 1896).

O'zbekistonda rasman jinoiy jarayonda fuqarolik da'vosi instituti mavjud, lekin uning amalda qo'llanishi juda cheklangan holatda qolmoqda. Jabrlanuvchilar ko'pincha bunday

da'vo qo'yish huquqidan bexabar bo'ladi. Da'vo qo'yilgan taqdirda ham sudlar ko'pincha fuqarolik da'vosini alohida ish yuritishga ajratadi, bu esa jarayonning cho'zilishi va sud xarajatlarining oshishiga olib keladi. Bundan tashqari, zarar miqdorini aniqlashning aniq uslublari mavjud emasligi noaniqliklar keltirib chiqaradi va sud qarorlarini oldindan bilish ehtimolini pasaytiradi (Bahramova, 2023).

Qurilishdagi nuqsonlar va binolarning qulashi uchun javobgarlik masalasi zamonaviy delikt huquqining eng dolzarb va murakkab muammolaridan biridir. Rivojlangan yurisdiksiyalarda qurilish jarayonining ko'plab ishtirokchilari o'rtasida javobgarlikni taqsimlashning kompleks tizimi shakllangan.

Amerika huquq sohasida bino qulashi uchun javobgarlikni keng doiradagi subyektlar – ko'chmas mulk egasi, qurilish kompaniyasi, arxitektorlar, muhandislar, pudratchilar, yordamchi pudratchilar, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilar va hatto qurilish nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlari zimmasiga yuklatish mumkinligi belgilangan (Santoro & Gray law Firm, 2025). Javobgar shaxsni aniqlash qurilish muhandislari, sud ekspertlari va yuristlarni jalb qilgan holda, hodisa joyi, loyiha hujjatlari va texnik nazorat jurnallarini o'rganadigan puxta tekshiruv talab qiladi (Ovadia Law Group, 2021).

Solidar javobgarlik konsepsiyasi Amerika tizimining muhim elementi hisoblanadi. Bunda jabrlanuvchi potensial javobgar shaxslarning istalgan biriga talab qo'yishi mumkin. Bu shaxs keyinchalik boshqa zarar yetkazuvchilarga nisbatan regress talabi huquqiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, jabrlanuvchilar tibbiy xarajatlar, yo'qotilgan ish haqi, jismoniy va ma'naviy zarar uchun kompensatsiya olish huquqiga ega. Oila a'zosi vafot etgan taqdirda esa qarindoshlar dafn marosimi xarajatlari, yo'qotilgan moliyaviy ta'minot va ma'naviy zararni qoplashni talab qilishlari mumkin (Ferraro Law Firm, 2021). Belgilanadigan kompensatsiya miqdori sud tomonidan taqdim etilgan dalillar asosida aniqlanadi va katta summani tashkil etishi mumkin, bu esa qurilish normalari va qoidalariga rioya qilish uchun iqtisodiy rag'batlar yaratadi.

Kontinental Yevropa huquq tizimlarida ham qurilishdagi nuqsonlardan jabrlanganlar manfaatlarini himoya qilishning rivojlangan mexanizmlari mavjud. Germaniya Fuqarolik kodeksi nuqsonli bino va inshootlar egalari hamda foydalanuvchilarining javobgarligi to'g'risidagi maxsus normalarni o'z ichiga oladi. Bunda javobgarlik prezumpsiyasi belgilangan bo'lib, u tegishli ehtiyotkorlik ko'rsatilgani isbotlangandagina rad etilishi mumkin (German Civil Code, 1896). Fransiya huquq sohasi esa quruvchilarning o'n yillik javobgarligini nazarda tutadi. Bu javobgarlik yuk ko'taruvchi konstruksiyalarga ta'sir etuvchi yoki binodan foydalanishni imkonsiz qiladigan jiddiy nuqsonlar uchun qo'llanadi va zarar yetkazuvchining aybiga bog'liq bo'lmaydi (French Civil Code, 2016).

Bunday rivojlangan tizim bilan taqqoslaganda, O'zbekistonning qurilishdagi nuqsonlar uchun javobgarlikni huquqiy jihatdan tartibga solishi tizimsiz va samarasiz bo'lib qolmoqda. Fuqarolik kodeksining 1017-moddasi tovar, ish yoki xizmatdagi nuqsonlar tufayli yetkazilgan zarar uchun sotuvchi yoki tayyorlovchining javobgarligini belgilaydi, biroq bu norma amaliyotda qurilish nuqsonlariga nisbatan kamdan-kam qo'llanadi. Asosiy muammo javobgar shaxslar doirasini aniqlash mexanizmi, zararni hisoblash metodikasi va kompensatsiya olish huquqini amalga oshirish tartibining aniq belgilanmaganligidadir.

O'zbekistonda bino qulab tushganda, huquqni muhofaza qilish organlari qurilish normalari va qoidalarining buzilishi fakti bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atadi. Tergov aybdor mansabdor shaxslarni aniqlashga qaratiladi va ular keyinchalik jinoiy javobgarlikka tortiladi. Ammo jabrlangan fuqarolarga zararni qoplash masalasi noma'lum muddatga



qoldiriladi yoki umuman hal qilinmaydi. Jabrlanuvchilar o'zlarining fuqarolik da'vosini taqdim etish huquqidan xabardor qilinmaydi va mustaqil ravishda sudga murojaat qilganida, kompensatsiya miqdorini aniqlashning aniq mezonlari yo'qligi hamda katta sud xarajatlarini ko'tarish zaruriyatiga duch keladi (Ismanzhanov, 2024).

Yo'l-transport hodisalari delikt huquqiy munosabatlarining yana bir ommaviy sohasi bo'lib, bunda zararni qoplash huquqini amalga oshirish muammolari o'ta keskin namoyon bo'ladi. Rivojlangan huquqiy tizimlarda YTH oqibatida yetkazilgan zarar uchun kompensatsiyani hisoblashning batafsil ishlab chiqilgan metodikalari mavjud. Amerika amaliyotida iqtisodiy zararlar va nomulkiy zararni hisobga oluvchi kompleks yondashuv qo'llanadi (AllLaw.com, 2025). Iqtisodiy zararlarga hujjatlar bilan tasdiqlanishi mumkin bo'lgan davolanish uchun tibbiy xarajatlar, mehnatga layoqatsizlik davrida yo'qotilgan ish haqi, kelgusidagi tibbiy xarajatlar, transport vositasini ta'mirlash yoki almashtirish qiymati va boshqa to'g'ridan to'g'ri moliyaviy yo'qotishlar kiradi (Kanie Law Firm, 2024).

Jismoniy va ma'naviy zararlarni o'z ichiga olgan nomulkiy zarar ko'paytirish usuli yordamida hisoblanadi. Ushbu metodikaga ko'ra, iqtisodiy zararlar miqdori shikastlanishning og'irligi, davolanish muddati, jabrlanuvchining kundalik hayotiga ta'sir darajasi va uzoq muddatli oqibatlarning mavjudligiga qarab bir yarimdan beshgacha bo'lgan koeffitsiyentga ko'paytiriladi (Allen Law Firm, 2024). Masalan, agar iqtisodiy zarar ellik ming dollarni tashkil etsa va ko'paytiruvchi uchga teng bo'lsa, yakuniy kompensatsiya yuz ellik ming dollarni tashkil etadi. Paraplegiya yoki bosh miyaning travmatik shikastlanishi kabi og'ir holatlar uchun maksimal besh ko'paytiruvchi qo'llanadi, bu jabrlanuvchining hayot sifatiga halokatli ta'sirni aks ettiradi (Justia, 2025).

Amerika tizimining eng muhim elementi – bu transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash institutidir. Ushbu institut zarar yetkazuvchining mulkiy holatidan qat'i nazar, jabrlanuvchilarga kompensatsiya olishning real imkoniyatini ta'minlaydi. Shu bilan birga, sug'urta kompaniyalari jabrlanuvchilarning da'volarini ko'rib chiqish va sudga murojaat qilmasdan sug'urta summasi doirasida kompensatsiya to'lashga majburdir, bu esa jarayonni sezilarli darajada tezlashtiradi va xarajatlarni kamaytiradi (Patino Law Firm, n.d.). Sug'urta summasi yetarli bo'lmagan hollarda, jabrlanuvchi sug'urta to'lovi va zararining haqiqiy miqdori o'rtasidagi farqni undirish uchun bevosita zarar yetkazuvchiga nisbatan da'vo taqdim etishi mumkin.

O'zbekistonda esa vaziyat tubdan farq qiladi. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash rasman mavjud bo'lishiga qaramay, jabrlanuvchilarga zararni real qoplash mexanizmi rivojlanmay qolmoqda. Jabrlanuvchilar bo'lgan YTH yuz berganda, huquqni muhofaza qilish organlari aybdor haydovchiga nisbatan ma'muriy bayonnoma tuzadi yoki jinoyat ishi qo'zg'atadi. Haydovchi keyinchalik davlatga jarima to'laydi yoki jinoiy jazoni o'taydi. Jabrlanuvchiga zararni qoplash masalasi esa yo e'tiborsiz qoldiriladi, yo uni suddan tashqari tartibda hal qilish taklifi bilan tomonlarning o'z ixtiyoriga topshiriladi (Ganiyev, 2021).

Majburiy sug'urta shartnomalari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishga rasman majbur bo'lgan sug'urta kompaniyalari amaliyotda to'lovlarni kamaytirish yoki ulardan to'liq qochish uchun turli xil yondashuvlar qo'llaydi. Zararni hisoblashning yagona uslublari mavjud emasligi subyektivizm va manipulyatsiyalar uchun keng imkoniyat yaratadi. Jabrlanuvchilar o'z huquqlaridan xabardor qilinmaydi, zararni qanday to'g'ri hujjatlashtirish, qanday tibbiy xulosalar olish zarurligi va talablarni qaysi muddatlarda taqdim etish kerakligini bilmaydi. Sudga murojaat qilish ko'p vaqt va katta moliyaviy xarajatlar talab qiladi, shu bilan birga,



sudlar tomonidan tayinlanadigan kompensatsiya miqdori aksariyat hollarda ma'naviy zararni qoplash uyoqda tursin, hatto to'g'ridan to'g'ri iqtisodiy zararlarni ham qoplamaydi (Babayev, 2021).

O'zbekistonda delikt majburiyatini samarali amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolardan biri qoplanishi lozim bo'lgan zarar miqdorini aniqlashning yagona uslublari va standartlarining mavjud emasligidir. Rivojlangan yurisdiksiyalarda standart zarar yetkazish holatlari uchun kompensatsiya miqdorini yuqori aniqlik bilan baholashga imkon beruvchi batafsil qo'llanmalar, jadvallar va pretsedentlar mavjud. Masalan, Germaniya tizimi tana jarohatlari uchun kompensatsiyani baholashda maxsus jadvallardan foydalanadi. Bu jadvallar yangi ishlarda munosib qoplash miqdorini aniqlash uchun sudyalari va advokatlar tomonidan e'lon qilinadi va qo'llanadi (Anthony, 2001). Ushbu jadvallar sud qarorlarining oldindan bilinishi va huquqni qo'llash amaliyotining bir xilligini ta'minlaydi, bu esa huquqiy aniqlikning eng muhim elementi hisoblanadi.

O'zbekistonda bunday metodika va jadvallar mavjud emas. Sudyalari kompensatsiya miqdorini aniqlashda Fuqarolik kodeksining 1022-moddasida mustahkamlangan oqilonalik va adolatning umumiy tamoyillariga asoslanadi, biroq bu tushunchalar baholovchi xususiyatga ega bo'lib, aniq mazmun bilan to'ldirilmagan. Natijada sog'liqqa yetkazilgan bir xil zarar uchun tayinlanadigan kompensatsiya miqdori ma'lum bir sudyaning subyektiv qarashiga qarab tubdan farq qilishi mumkin, bu esa huquqiy noaniqlik va oldindan aytib bo'lmazlik holatini yuzaga keltiradi (Musaev, 2024). Jabrlanuvchilar qanday kompensatsiyaga umid qilishlari mumkinligini oldindan baholay olmaydi. Bu esa sudga murojaat qilish yoki suddan tashqari tartibda kelishish maqsadga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilishni murakkablashtiradi.

Bu muammo, ayniqsa, yo'qotilgan ish haqi miqdorini aniqlashda yaqqol namoyon bo'ladi. Fuqarolik kodeksining 1007-moddasida qoplash miqdori sog'liqqa zarar yetkazilgunga qadar bo'lgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasiga mos keluvchi foizlarda aniqlanishi haqida umumiy qoidalar mavjud. Biroq amalda O'zbekiston iqtisodiyotida keng tarqalgan norasmiy daromadlarni qanday hisobga olish zarurligi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar uchun yo'qotilgan foydani qanday aniqlash lozimligi, endigina mehnat faoliyatini boshlagan yoshlar uchun kelajakdagi yo'qotishlarni qanday hisoblash kerakligi, uzoq muddatli to'lovlar davrida inflyatsiya va yashash narxining o'sishini qanday hisobga olish mumkinligi haqida ko'plab savollar tug'iladi (Paluaniyazov, 2009). Ushbu savollarga aniq javoblarning yo'qligi sudlarning ko'pincha zararining haqiqiy miqdorini aks ettirmaydigan ramziy kompensatsiya summaları tayinlashiga olib keladi.

Delikt majburiyatini O'zbekistonda amalga oshirish moddiy-huquqiy muammolardan tashqari, protsessual to'siqlar va sud organlarining ixtisoslashuvi yetishmasligi bilan ham yanada murakkablashadi. Zararni qoplash bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiquvchi ixtisoslashgan sudyalari tarkibi mavjud rivojlangan huquqiy tizimlardan farqli qiladi. O'zbekistonda bunday ishlar umumiy yurisdiksiya sudyalari tomonidan ko'rib chiqiladi. Ular ko'pincha shikastlanish og'irligini tibbiy baholash, kelajakdagi yo'qotishlarni aktuar hisoblash va deliktlar turlarining o'ziga xos xususiyatlari kabi murakkab masalalarda yetarli ekspertizaga ega bo'lmaydi (Karakhodzhaeva, 2024).

Zararni qoplash ishlarida isbotlash tartibi tibbiy, texnik, buxgalteriya xususiyatiga ega ko'plab sud ekspertizalarini o'tkazishni talab qiladi, ularning qiymati ko'pincha taxminiy kompensatsiya miqdori bilan teng bo'ladi. Qonunchilik delikt ishlarida isbotlash yuki va sud

xarajatlarini taqsimlash bo'yicha aniq qoidalarini o'z ichiga olmaydi. Bu esa jabrlanuvchining ijobiy qaror chiqqan taqdirda ham ekspertizalarni o'tkazish uchun katta miqdordagi summalarni avans sifatida to'lashga majbur bo'ladigan vaziyatni yuzaga keltiradi (Tojiboyev, 2021). Bu, ayniqsa, moliyaviy imkoniyati cheklangan ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar uchun muammo tug'diradi.

Bundan tashqari, zararni qoplash ishlari bo'yicha sud qarorlarining yagona bazasi yo'qligi barqaror huquqni qo'llash amaliyotining shakllanishi va tipik vaziyatlarga pretsedent yondashuvlar ishlab chiqilishiga to'sqinlik qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda sud qarorlarining nashr etilishi hamda elektron ma'lumotlar bazalarining yaratilishi advokatlar va sudyalarga avvalgi ishlarni o'rganish hamda huquq normalarining bir xil qo'llanishini ta'minlash imkonini beradi (Rustambekov, 2023). O'zbekistonda bunday ma'lumotlar bazalari yo mavjud emas, yoki faqat cheklangan doiradagi shaxslar uchun mavjud, bu esa amaliyotchi yuristlarning ishini qiyinlashtiradi va jabrlanuvchilarga ko'rsatiladigan huquqiy yordam sifatini pasaytiradi.

Xorijiy tajriba tahlili delikt majburiyati tizimini tashkil etishning bir nechta muvaffaqiyatli modellari mavjudligidan dalolat beradi. Ushbu modellar milliy o'ziga xosliklarni hisobga olgan holda, O'zbekiston sharoitlariga moslashtirilishi mumkin.

Birinchi model anglo-amerika huquq oilasi mamlakatlarida keng tarqalgan bo'lib, xususiy delikt huquqining rivojlangan tizimiga asoslanadi. Bunda nizolarni sud orqali hal qilish va nomulkiy zarar miqdorini aniqlash uchun hay'at a'zolari institutidan foydalanishga e'tibor qaratiladi (Wikipedia, n.d.). Bu modelning afzalligi har bir holatga moslashuvchanlik va individual yondashuv bo'lsa, kamchiligi sud jarayonining yuqori qiymati, jarayonning uzoqligi va natijalarni oldindan aytib bo'lmasligidir.

Ikkinchi model Kontinental Yevropa mamlakatlariga xos bo'lib, batafsil qonunchilik tartibga solinishini rivojlangan sud amaliyoti va kompensatsiyani hisoblashning standartlashtirilgan uslublaridan foydalanish bilan birlashtiradi. Germaniya tizimining tana jarohatlarini baholash jadvallari va Fransiyada quruvchilar uchun belgilangan o'n yillik javobgarlik tizimi qonunchilik normalarining ularni amalga oshirishning amaliy vositalari bilan samarali uyg'unligini namoyish etadi (Britannica, 2025).

Uchinchi model Yangi Zelandiya tajribasida namoyon bo'lgan bo'lib, u aybni aniqlamagan holda, kompensatsiya tizimini yaratishga asoslangan. Bu tizim umumiy soliq tushumlari, ish beruvchilar va xodimlarning badallari hamda transport vositalari uchun maxsus soliq hisobidan moliyalashtiriladi (Woodhouse Report, 1967) Ushbu tizim zarar yetkazuvchining aybi bor yoki yo'qligi va isbotlanishidan qat'i nazar, baxtsiz hodisalardan jabrlangan barchaga avtomatik kompensatsiyani ta'minlaydi. Bu esa tartib-taomilni sezilarli darajada soddalashtiradi va kompensatsiya olinishini kafolatlaydi. Biroq tanqidchilar bunday tizimning davlat byudjeti uchun yuqori narxi va an'anaviy delikt majburiyati ta'minlaydigan ogohlantiruvchi ta'sirning yo'qligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston uchun qonunchilikning aniqligi, hisoblashning standartlashtirilgan uslublari va majburiy javobgarlikni sug'urtalashni rivojlantirishga e'tibor qaratadigan Kontinental Yevropa modelini moslashtirish eng maqbul hisoblanadi. Bu model kodifikatsiya qilingan qonunchilikka asoslangan O'zbekistonning huquqiy an'anasiga mos keladi va mavjud sud tizimini tubdan qayta qurishni talab qilmaydi (Gulyamov & Rustambekov, 2020).

O'zbekistondagi delikt majburiyati tizimi muammolarini tahlil qilish va xorijiy tajribani o'rganish asosida qonunchilik hamda huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar kompleksini shakllantirish mumkin.

Birinchidan, zarar turlari uchun kompensatsiya miqdorini aniqlash bo'yicha ixtisoslashgan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish va qabul qilish zarur. Ushbu uslubiy tavsiyalar og'irlik darajasi, davolanish muddati, mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasi va hayot sifatiga ta'sirini hisobga olgan holda, tipik tana jarohatlari uchun kompensatsiyani baholash bo'yicha batafsil jadvallarni o'z ichiga olishi kerak. Bunday jadvallarni yaratish uchun so'nggi yillardagi sud amaliyotini kompleks tadqiq qilish, xorijiy tajribani o'rganish va tibbiyot, iqtisodiyot va huquq sohasidagi ekspertlarni jalb qilish maqsadga muvofiq. Uslubiy tavsiyalar sudlar va sug'urta kompaniyalari tomonidan qo'llanishi majburiy bo'lishi kerak, bu esa amaliyotning bir xilligi va natijalarning oldindan bilinishini ta'minlaydi (Mamanazarov, 2024).

Ikkinchidan, transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligining majburiy sug'urtalash mexanizmini kuchaytirish va uni yuqori xavf manbayi bo'lgan boshqa sohalarda ham kengaytirish talab etiladi. Majburiy sug'urtalash to'g'risidagi qonunchilik jabrlanuvchilarning talablarini sug'urta kompaniyalari tomonidan ko'rib chiqish tartibi, kompensatsiya to'lashning majburiy muddatlarini belgilash, asossiz to'lovdan bosh tortish yoki to'lovni kechiktirish uchun sug'urtalovchilarning javobgarligi to'g'risidagi batafsil normalar bilan to'ldirilishi lozim. Sug'urta kompaniyalarining jabrlanuvchilar oldidagi majburiyatlariga rioya etilishini nazorat qiladigan va insofsiz sug'urtalovchilarga nisbatan ma'muriy sanksiyalar qo'llashga vakolatli bo'lgan maxsus nazorat organini tashkil etish darkor.

Uchinchidan, zararni qoplash ishlari bo'yicha isbotlash yuki va sud xarajatlarini taqsimlash qismida protsessual qonunchilikni takomillashtirish zarur. Delikt ishlarida jabrlanuvchi da'vo arizasini topshirishda davlat bojini to'lashdan ozod qilinishi, ekspertizalarni o'tkazish uchun sud xarajatlari esa javobgar yoki davlat byudjeti hisobidan avans tariqasida qoplanib, keyinchalik yutqazgan tomondan undirilishi to'g'risidagi qoidani belgilash maqsadga muvofiqdir. Bu ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar uchun sud adolatidan real foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi va zararni qoplash huquqini amalga oshirish uchun moliyaviy to'siqlarni bartaraf etadi.

To'rtinchidan, sudyalarning ixtisoslashuvini rivojlantirish va delikt ishlarini ko'rib chiqish uchun ixtisoslashgan tarkiblarni yaratish talab etiladi. Zararni qoplash ishlari bo'yicha ixtisoslashgan sudyalar tibbiy baholash, zararni hisoblash uslublari, deliktlar turlarining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tishlari kerak. Oliy sud huzurida delikt majburiyati masalalari bo'yicha maxsus ilmiy-maslahat kengashini tashkil etish lozim. Ushbu kengash uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishi, sud amaliyotini umumlashtirishi va qonunchilikni qo'llashning murakkab masalalari bo'yicha yo'riqnomalar tayyorlashi mumkin.

Beshinchidan, zararni qoplash ishlari bo'yicha sud qarorlarining yagona elektron bazasini yaratish va undan amaliyotchi yuristlar, tadqiqotchilar va fuqarolar ochiq foydalanishini ta'minlash zarur. Ushbu baza ishning holatlari, qo'llangan huquq normalari, tayinlangan kompensatsiya miqdori va qarorning asoslantiruvchi qismi ko'rsatilgan sud qarorlarining to'liq matnlarini o'z ichiga olishi kerak. Ushbu ma'lumotlar bazasini tahlil qilish tipik vaziyatlarni aniqlash, turli zararlar uchun o'rtacha kompensatsiya miqdorlarini belgilash va sud amaliyotining bir xilligini ta'minlashga imkon beradi (Mutalov, 2024).

Oltinchidan, jinoiy jarayonda fuqarolik da'vosi institutini takomillashtirish va uni samarali amalga oshirishning real mexanizmlarini yaratish talab etiladi. Qonunchilikda tergovchining zarar yetkazish fakti bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilganda, jabrlanuvchiga uning fuqarolik da'vosini taqdim etish huquqini tushuntirish va uni tayyorlashda ko'maklashish majburiyatini mustahkamlash zarur. Sudlar jabrlanuvchining roziligisiz uni alohida ish yuritishga ajratish huquqiga ega bo'lmasligi kerak, fuqarolik da'vosini ko'rib chiqish jinoyat jarayonini sezilarli

darajada cho'zadigan holatlar bundan mustasno. Jinoiy ish bo'yicha hukm chiqarishda sud bir vaqtning o'zida fuqarolik da'vosi masalasini hal qilishi va taqdim etilgan dalillar asosida kompensatsiya miqdorini aniqlashi lozim.

Yettinchidan, zararni qoplash to'g'risidagi nizolarni hal qilishning muqobil usullari, shu jumladan, mediatsiya va arbitrajni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Mediatsiya to'g'risidagi qonunchilik delikt ishlarida mediatsiya tartib-taomili, mediatorlarga qo'yiladigan malaka talablari va mediativ kelishuvga erishishning huquqiy oqibatlari haqidagi maxsus normalar bilan to'ldirilishi kerak. Sug'urta kompaniyalari va professional assotsiatsiyalar huzurida zararni qoplash to'g'risidagi nizolarni sudgacha hal qilish bo'yicha ixtisoslashgan xizmatlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu xizmatlar jabrlanuvchilarning talablarini tezkorlik bilan ko'rib chiqishi va sudga murojaat qilmasdan adolatli kompensatsiya taklif qilishi mumkin (Rustambekov, 2020).

Sakkizinchidan, Fuqarolik kodeksining 985-moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan zararni qoplashdan tashqari kompensatsiya institutini kengroq qo'llash orqali delikt majburiyatining preventiv funksiyasini kuchaytirish zarur. Qonunchilik yoki shartnomalar bilan qasddan zarar yetkazish, qo'pol ehtiyotsizlik yoki xavfsizlik qoidalarini muntazam buzish holatlari uchun kompensatsiyaning oshirilgan miqdorlari belgilanishi mumkin. Bu ehtiyot choralariga rioya qilish uchun qo'shimcha iqtisodiy rag'batlar yaratadi va jamiyatda xavfsizlik madaniyatini oshiradi (Oqyulov, 2020).

### **Xulosa**

O'tkazilgan tadqiqotda O'zbekiston qonunchiligidagi delikt majburiyati to'g'risidagi normativ qoidalar va real huquqni qo'llash amaliyoti o'rtasidagi tizimli tafovut aniqlandi. Fuqarolik kodeksida zararni to'liq qoplash tamoyili rasman mustahkamlanganligi va delikt majburiyatlarining turlari batafsil tartibga solinganligiga qaramay, amaliyot huquqbuzarliklarga nisbatan ommaviy-huquqiy yondashuvning ustunligini namoyish etadi. Bunda jabrlanuvchining manfaatlari yuridik tartib-taomillarning asosiy e'tiboridan chetda qolib ketmoqda. Aybdor shaxslar ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladi, davlatga jarima to'laydi, lekin jabrlanuvchilar ko'pincha ko'rilgan zarar uchun real kompensatsiya olmaydi.

Rivojlangan xorijiy yurisdiksiyalar qonunchiligi hamda amaliyotining qiyosiy-huquqiy tahlili ommaviy-huquqiy va xususiy-huquqiy javobgarlikning aniq farqlanishi, kompensatsiyani hisoblashning standartlashtirilgan uslublaridan foydalanish, majburiy javobgarlikni sug'urtalashning rivojlangan tizimi va sud organlari ixtisoslashuviga asoslangan jabrlanuvchilar manfaatlarini himoya qilishning samarali mexanizmlari mavjudligini ko'rsatmoqda. Ushbu elementlar O'zbekistonning milliy huquqiy an'analari va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, mamlakat sharoitlariga moslashtirilishi mumkin va zarur.

Kompensatsiya miqdorini aniqlashning yagona uslublarini ishlab chiqish, majburiy javobgarlikni sug'urtalash mexanizmini kuchaytirish, sud adolatiga erishishdagi protsessual to'siqlarni bartaraf etish, sudyalarning ixtisoslashuvini rivojlantirish, sud qarorlarining yagona bazasini yaratish, jinoiy jarayonda fuqarolik da'vosi institutini takomillashtirish, nizolarni hal qilishning muqobil usullarini rivojlantirish va delikt majburiyatining preventiv funksiyasini kuchaytirish O'zbekiston qonunchiligi hamda delikt majburiyati sohasidagi huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Taklif etilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish qonunchilik organlari, sud tizimi, sug'urta sektori, huquqni muhofaza qilish organlari va yuridik hamjamiyatning

muvofiglashtirilgan sa'y-harakatlarini talab qiladi. Biroq bu sa'y-harakatlar fuqarolarning zararni qoplashga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini real himoya qilishni ta'minlash, jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish va ehtiyot choralariga rioya qilish uchun samarali iqtisodiy rag'batlar yaratish uchun zarurdir. Delikt majburiyati institutining rivojlanishi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim elementi bo'lib, bunda har bir insonning huquqi va qonuniy manfaatlari ishonchli yuridik himoya ostida bo'ladi.

## REFERENCES

1. Anthony, J. S. (2001, July). FindLaw. How Germany Views U.S. Tort Law. <https://supreme.findlaw.com/legal-commentary/how-germany-views-us-tort-law.html>
2. AllLaw.com. (2025, March). Personal Injury Settlement Calculator. <https://www.alllaw.com/articles/nolo/personal-injury/calculator.html>
3. Allen Law Firm. (2024, November). How to Calculate Compensation After an Accident in CA. <https://www.sjallenlaw.com/calculate-accident-compensation/>
4. Bahramova, M. (2023). Xalqaro arbitraj faoliyatini raqamlashtirish va huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari [Issues of digitization of international arbitration activities and improvement of its legal framework]. [PhD thesis]. Tashkent.
5. Babayev, D. (2021). Iste'molchi huquqbuzarliklarni qonunbuzarlik uchun javobgarlikka tortishga harakat qiling [Try to hold consumer offenders accountable for violations]. *Huquqiy tadqiqotlar jurnali* [Journal of Law Research ], 6 (8).
6. Bozarov, S. (2023). Sun'iy intellekt kontekstida huquqiy javobgarlik [Legal liability in the context of artificial intelligence]. [Dissertation Abstract]. Tashkent. 2023.
7. Britannica. (2025, December). Tort – Negligence, Damages, Liability. <https://www.britannica.com/topic/tort/Tort-law-and-alternative-methods-of-compensation>
8. Council of Europe. (1983). European Convention on the Compensation of Victims of Violent Crimes. Strasbourg.
9. English Tort Law. (n.d.). Wikipedia. [https://en.wikipedia.org/wiki/English\\_tort\\_law](https://en.wikipedia.org/wiki/English_tort_law)
10. Ferraro Law Firm. (2021, June). Building Collapse Liability. Available at: <https://ferrarolaw.com/blog/2021/june/building-collapse-liability/>
11. French Civil Code. (2016, February). Article 1792. Ten-Year Liability of Builders.
12. Ganiyev, N. (2021). Telekommunikatsiya xizmatlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish [Improving civil law regulation of telecommunications services]. [PhD thesis]. Tashkent.
13. German Civil Code. (n.d.). (BGB) § 839. Liability for Breach of Official Duty in Conjunction with Article 34 of the German Basic Law.
14. Gulyamov, S. S., & Rustambekov, I. R. (2020). *Mezhdunarodnoe chastnoe pravo v kiberprostranstve: obzor zakonodatelstva Uzbekistana* [International Private Law in Cyberspace: A Review of Uzbekistan's Legislation] (p. 88). Tashkent.
15. Ismanjanov, A. (2024). Axborotning fuqarolik-huquqiy maqomi [Civil legal status of the estate]. [Doctor of Law (DSc) Dissertation Abstract]. Tashkent.
16. Justia. (2025, September). Calculating Total Damages in Car Accident Claims & Lawsuits. <https://car-accidents.justia.com/insurance-in-car-accident-cases/whats-my-car-accident-case-worth/>
17. Kaine Law. (n.d.). Calculating Your Car Accident Compensation Amount. <https://kainelaw.com/faqs/how-to-calculate-your-car-accident-compensation-amount/>
18. Karakhodzhaeva, D. (2024). *Vvedenie v grazhdanskoe pravo* [Introduction to Civil Law]. Tashkent.



19. Legal Information Institute. (n.d.). Tort Law. <https://www.law.cornell.edu/wex/tort>
20. Mamanazarov, S. (2024). Big Dataning fuqarolik-huquqiy rejimi. [Doctoral Dissertation]. Tashkent.
21. Mutalov, O. (2024). Raqamli fuqarolikda aqlli shartnomalarning huquqiy tabiati [The legal nature of smart contracts in digital citizenship]. [PhD thesis]. Tashkent.
22. Musaev, E. (2024). *Grazhdanskoe pravo (obshchaya chast) [Civil law (general part)]*. Tashkent.
23. Oqyulov, O. (2020). Fuqarolik kodeksi haqiqatni aks ettirishi kerak [The Civil Code must reflect reality]. *Huquq [Law]*, 26, 1223.
24. Ovadia Law Group. (2021 August). Building Collapse – Who is Liable? <https://wesetthestandards.com/building-collapse-who-is-liable/>
25. Oxford University. (n.d.). Comparative Study of English and German Judicial Approach to Liability of Public Bodies in Negligence. Oxford University Comparative Law Forum. <https://ouclf.law.ox.ac.uk>
26. Patino Law Firm. (n.d.). Car Accident Settlement Calculator. <https://www.patinolawoffice.com/personal-injury-calculator/>
27. Paluaniyazov, Kh. (2009). Grazhdanskaya zashchita personalnykh dannykh [Civil protection of personal data]. [Abstract of PhD thesis]. Tashkent.
28. Price Waterhouse Cooper Report. (2008). International Arbitration Corporate attitudes and practices. <https://www.pwc.co.uk/assets/pdf/pwc-international-arbitration-2008.pdf>
29. Rahmonqulov, H. (2005). Majburiyat huquqi [Right of obligation]. Tashkent.
30. Rustambekov, I. (2023). *Access to justice and the role of online dispute resolution. Prospects for the Development of International Commercial Arbitration in Uzbekistan*.
31. Rustambekov, I. (2020, November). Genesis of alternative dispute resolution mechanisms in the Republic of Uzbekistan. *Review of Law Sciences*, 7–20.
32. Santoro & Gray Law Firm. (2025, January). Who Can Be Held Liable for Losses in a Building Collapse? <https://santoroandgray.com/building-collapse-liability/>
33. Stanford Encyclopedia of Philosophy. (2022, June). Theories of the Common Law of Torts. <https://plato.stanford.edu/entries/tort-theories/>
34. Tojiboyev, A. (2021). Startaplar yaratish fuqarolik-hukukiy tartibga solish [Civil and legal regulation of creating startups]. [Doctoral of Philosophy dissertation]. Tashkent.
35. United Nations. (1985). Basic Principles of Justice for Victims of Crime and Abuse of Power. UN General Assembly Resolution 40/34.
36. Wikipedia. (n.d.). Tort Law. <https://en.wikipedia.org/wiki/Tort>
37. Woodhouse Report. (1967). New Zealand Accident Compensation Scheme.
38. Yakovenko, A. (2022). O'zbekiston Respublikasida elektron tijoratni fuqarolik-huquqiy tartibga solish muammolari va istiqbollari [Problems and prospects of civil legal regulation of e-commerce in the Republic of Uzbekistan]. [PhD Thesis]. Tashkent.

Kelib tushgan / Получено / Received: 20.11.2025  
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 13.12.2025  
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.uzlawrev.2.4./TTJR4342

UDC: 349.6+004.8(045)(575.1)

## QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI: AQSH, YEVROPA ITTIFOQI VA O'ZBEKISTON QONUNCHILIGI MISOLIDA

**Sadikova Dilafruz Radjabovna,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
tayanch doktoranti  
ORCID: 0009-0005-8761-2767  
e-mail: Pstudy22@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqolada AQSh, Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston misolida sun'iy intellekt texnologiyalarini qayta tiklanuvchi energiya manbalariga integratsiya qilishning huquqiy asoslari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot jarayonida xorijiy olimlar, mutaxassislar va tadqiqotchilarning sun'iy intellektning energetika tizimlaridagi o'rni, ijobiy va salbiy jihatlari hamda ular tomonidan taklif etilgan yechimlarga bag'ishlangan ishlari tahlil qilingan. Amaldagi xalqaro standartlar, shu jumladan, Yevropa Sun'iy intellekt qonuni, NIST tamoyillari va boshqa me'yoriy hujjatlar taqqoslandi. O'zbekiston Respublikasining qayta tiklanuvchi energetika va sun'iy intellektni tartibga solish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlari o'rganilib, mavjud standartlarning qiyosiy tahlili o'tkazildi. Sun'iy intellektni energetika sohasiga integratsiyalash masalalari bo'yicha Scopus tomonidan indekslangan xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalari va retsenziyalanadigan jurnallardan olingan materiallardan foydalanilgan. Huquqiy rejimlar taqqoslandi, tartibga solishdagi bo'shliqlar aniqlandi va sohani takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berildi.

**Kalit so'zlar:** qayta tiklanuvchi energiya, sun'iy intellekt, ekologik barqarorlik, xavfsizlik, integratsiya, sun'iy intellekt texnologiyalari

## РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ИСПОЛЬЗОВАНИИ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ: НА ПРИМЕРЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА США, ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА И РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Садикова Дилафруз Раджабовна,**  
базовый докторант Ташкентского  
государственного юридического университета

**Аннотация.** В статье на примере США, Европейского союза и Республики Узбекистан рассмотрены правовые основы интеграции технологий искусственного интеллекта в возобновляемые источники энергии. В ходе исследования проанализированы труды зарубежных учёных, специалистов и исследователей, посвящённые роли искусственного

интеллекта в энергетических системах, его положительным и отрицательным аспектам, а также предлагаемых ими решениям. Сопоставлены действующие международные стандарты, включая Закон ЕС об искусственном интеллекте, принципы NIST и другие нормативные документы. Изучены нормативно-правовые акты Республики Узбекистан в сфере возобновляемой энергетики и регулирования искусственного интеллекта, проведён сравнительный анализ существующих стандартов. При подготовке исследования использованы материалы международных научных баз данных и рецензируемых журналов, индексируемых Scopus, посвящённые вопросам интеграции искусственного интеллекта в энергетический сектор. Проведено сравнение правовых режимов, выявлены пробелы в регулировании и сформулированы рекомендации по совершенствованию данной сферы.

**Ключевые слова:** возобновляемая энергия, искусственный интеллект, экологическая устойчивость, безопасность, интеграция, технологии искусственного интеллекта

## THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE USE OF RENEWABLE ENERGY SOURCES: ON THE EXAMPLE OF THE LEGISLATION OF THE USA, THE EUROPEAN UNION, AND UZBEKISTAN

**Sadikova Dilafruz Radjabovna,**

Basic Doctoral student at Tashkent State University of Law

**Abstract.** The article examines the legal framework for the integration of artificial intelligence technologies into renewable energy sources using the example of the USA, the European Union, and Uzbekistan. In the course of the research, the works of foreign scientists, specialists, and researchers devoted to the role of artificial intelligence in energy systems, its positive and negative aspects, as well as the solutions proposed by them, were analyzed. Current international standards, including the European Artificial Intelligence Law, NIST principles, and other regulatory documents, were compared. The regulatory legal acts of the Republic of Uzbekistan in the field of regulation of renewable energy and artificial intelligence were studied, and a comparative analysis of existing standards was conducted. Materials from international scientific databases and peer-reviewed journals indexed by Scopus on the integration of artificial intelligence into the energy sector were used. Legal regimes were compared, regulatory gaps were identified, and recommendations for improving the sphere were given.

**Keywords:** renewable energy, artificial intelligence, environmental sustainability, security, integration, artificial intelligence technologies

### Kirish

Global energetika tizimining barqaror rivojlanishi qayta tiklanuvchi energiya manbalarining (keyingi o'rinlarda QTEM) jadal rivojlanishini talab qilmoqda. Xususan, xalqaro qayta tiklanuvchi energiya agentligi IRENAning 2025-yilda bergan hisobotiga ko'ra, QTEM quvvatlari hajmi dunyo bo'ylab oxirgi bir yilda 15,1 foizga oshganligini, ya'ni 2023-yilgi 14,3 foiz ko'rsatgichga nisbatan o'sib, qo'shimcha 585 GW energiya yashil energiya ulushiga to'g'ri kelganligini ko'rsatmoqda (IRENA, 2025). Ayniqsa, QTEM quvvatlari ichida quyosh va shamol energiyasi tez sur'atlarda o'sib bormoqda, 2024-yilda qo'shilgan barcha yashil quvvatlarning 96,6 foizini shu ikki energiya quvvatlari tashkil etgan.

Ushbu muhim taraqqiyot haqida izoh berar ekan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antonio Guterres shunday dedi: "Qayta tiklanadigan energiya qazilma yoqilg'i davrining tugashini yaqinlashtirmoqda. Rekord o'sish yangi ish o'rinlarini yaratib, energetika sohasidagi joriy xarajatlarni kamaytirib, atmosfera havosini tozalamoqda. Qayta tiklanadigan energiya

iqtisodiyotni yangilamoqda. Ammo toza energiyaga o'tish tezroq va adolatliroq bo'lishi kerak, toki barcha mamlakatlar arzon, toza qayta tiklanadigan energiyadan to'liq foydalana olishlari mumkin bo'lsin (IRENA, 2025)".

Energetika sohasidagi global analitik markaz – Emberning prognozlariga ko'ra, 2025-yil COVID-19 pandemiyasidan beri global elektr energiyasi ishlab chiqarishda qazilma yoqilg'idan foydalanishda sezilarli o'sish kuzatilmaydigan birinchi yil bo'ladi. Ya'ni an'anaviy yoqilg'i manbalaridan ko'ra toza va barqaror yoqilg'i manbalariga bo'lgan talab oshadi.

Ushbu statistik ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, QTEM jahon energetika tizimlarida tobora sezilarli o'ringa ega bo'lib bormoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellekt (keyingi o'rinlarda SI) texnologiyalarini QTEM tizimlariga kiritish orqali energiya samaradorligini, barqarorlik va xavfsizlikni oshirish bo'yicha yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, QTEM va sun'iy intellekt integratsiyasining nafaqat texnik, balki huquqiy jihatlari o'rganilishi ham ayni vaqtda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, sun'iy intellekt texnologiyalari qayta tiklanadigan energiya tizimlarini optimallashtirish, energiya ishlab chiqarishni prognozlash, xavfsizlik monitoringi va avtomatlashtirilgan boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, sun'iy intellektning energetika sohasi bilan integratsiyalashuvi yangi huquqiy masalalar, jumladan, javobgarlik, ma'lumotlar maxfiyligi, kiberxavfsizlik va algoritmik adolat borasida kompleks tartibga solish mexanizmlarini hamda huquqiy kafolatlar tizimlarini yaratishni nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasida QTEM va SI bo'yicha alohida sektorlararo yondashuv mavjud bo'lsa-da, SIning aynan energetika tizimlarida qo'llanishi bo'yicha maxsus normativ-huquqiy mexanizm hali to'liq shakllanmagan.

Umumiy energetika sohasida qayta tiklanuvchi energiya tizimlari ahamiyatining ortib borishi shuni ko'rsatadiki, nafaqat ekologik muammolar, balki texnologik innovatsiyalar ham bu sohada transformatsion rol o'ynay boshladi. Ushbu transformatsiya davrida, xususan, SI texnologiyalari energiya ishlab chiqarishdan uni iste'mol qilishgacha bo'lgan jarayonda yuzaga keladigan texnik, iqtisodiy va boshqaruv muammolarini hal qilishning strategik vositasiga aylandi. SIga asoslangan yechimlar quyosh va shamol energiyasi kabi o'zgaruvchan resurslar uchun ishlab chiqarish baholarining aniqligini oshirish, tarmoqlarni aqlli boshqarishni ta'minlash, mikrotarmoqlarni optimallashtirish va energiya samaradorligini oshirish kabi sohalarida tobora keng tarqalmoqda. Bu energetika tizimlarini raqamlashtirishni tezlashtiradi. SI uchun investitsiyalar nafaqat texnologik taraqqiyot, balki kam uglerodli energiyaga o'tishni tezlashtiradigan ko'p o'lchovli mexanizm sifatida ham qaraladi. Ma'lumotlarni tahlil qilish va mashina o'rganish (Machine Learning) kabi texnologiyalar orqali SI nafaqat qisqa muddatli talab va taklif muvozanatini optimallashtiradi, balki uzoq muddatli energiya siyosatini shakllantirishga ham hissa qo'shadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun teng shartlarda global texnologik yashil integratsiyaning teng huquqli ishtirokchisiga aylanish imkoniyatini beradi (Ember, 2025).

Hozirgi kunda bu dolzarb masala bo'lib, tabiiy toza energiya ishlab chiqarish va uni zamonaviy texnologiyalar evolyutsiyasi bo'lgan SI bilan integratsiya qilish orqali butun dunyo duch kelayotgan ekologik muammolarning oqibatlarini yumshatish, shu orqali energiya tizimidagi yo'qotishlarning oldini olish va tizimda yashil energiya miqdorini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatdir. Bu borada dunyoning ko'plab olimlari, soha vakillari va tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

Xususan, Saudiya Arabistoni Qirol Abdulaziz universiteti tadqiqotchilari: Roba Alsaigh, Rashid Mexmood va Iyad Katib tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida SIning

energetika tizimiga integratsiyalashuvidan yuzaga keladigan holatlar, model nazorati va potensial xavflar 15 ta parametr orqali o'rganilgan (Xue et al., 2023). Tadqiqotchilar tomonidan energetika sohasida sun'iy intellektni boshqarish sohasiga oid Scopus ma'lumotlar bazasidagi 150 dan ortiq ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, energetika tizimlarida SI bilan bog'liq texnik nosozliklar, ma'lumot manbalarini boshqarish, saqlash, uzatish, va yetkazib berish bilan bog'liq murakkab tuzilmalarning mavjudligi, ularni hal qilish uchun nafaqat texnik va axborot, balki huquqiy asoslarni yaratish va ularning ishlash mexanizmlarini o'rnatish zarurligini ko'rsatadi.

Doktor Tomas Le Goff – Ecole Polytechnique de Paris universitetining huquq va texnologiyalar kafedrası dotsenti bo'lib, u yerda raqamli texnologiyalar, ma'lumotlar, kiberxavfsizlik va SI ni tartibga solish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib boradi. Uning tadqiqotlari asosan SI va barqaror rivojlanish o'rtasidagi huquqiy va davlat siyosati nuqtayi nazaridan bog'liqlikka qaratilgan. U o'zining doktorlik dissertatsiyasini (PhD) energetika sohasida SI ni tartibga solish bo'yicha yozgan, jumladan, SI to'g'risidagi qonunni chuqur tahlil qilish va qonunchilikka ekologik barqarorlikni SI ni tartibga solishni kiritish borasidagi birinchi takliflarni kiritib, SI ning huquqiy maqomi va energetika sohasiga integratsiyalashuvini o'rgangan.

Tomas Le Goff o'zining "Sun'iy intellekt yordamida energetika sohasini barqaror rivojlantirish: tartibga solish va boshqarish muammolari (Alsaigh & Mehmood, et.al., 2023)" tadqiqotida kiberxavfsizlik, shaxsiy daxlsizlik, maxfiylik va boshqa tartibga solish masalalarini, masalan, Yevropa Ittifoqining SI to'g'risidagi qonuniga rioya qilish bilan bog'liq huquqiy muammolarni o'rgangan. Ushbu xavflarni tushunish energiya kompaniyalarida SI dan mas'uliyat bilan foydalanishning kalitidir. Uning fikricha, energetika kompaniyalari barqaror SI innovatsiyalarini joriy etish uchun eng yaxshi pozitsiyaga ega, chunki ular iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishning oldingi saflarida, sanoatda ekologik muammolar bilan tanish va o'z tizimlarini quvvatlantirish uchun kam uglerodli energiya manbalaridan foydalanishlari mumkin.

### **Asosiy qism**

Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, O'zbekiston Respublikasi, barqaror rivojlanishning strategik elementi sifatida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonning huquqiy tizimida QTEM ni keng joriy etish bilan bir qatorda, energetika resurslarini boshqarishda SI texnologiyalarini qo'llash imkonini beruvchi modernizatsiya qilingan huquqiy infratuzilma yaratilmoqda. Ushbu jarayonning asosiy me'yoriy-huquqiy bazasi O'zbekiston Respublikasining 2019-yildagi "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni bo'lib, unda energiya ishlab chiqarish va taqsimlashni raqamlashtirish, avtomatlashtirish va elektron monitoringini amalga oshirish vazifalari belgilangan. Qonunda SI modellarini energetika infratuzilmasi doirasida amalga oshirish uchun huquqiy yo'l ochadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida, 3-ustuvor yo'nalish – "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" doirasida energetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish, QTEM loyihalarini keng joriy etish, 2026-yilgacha elektr ishlab chiqarishdagi QTEM ulushini keskin oshirish vazifasi belgilangan. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, xususan, SI ni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish, energetika sohasini raqamlashtirish, ishonchli monitoring yuritish, iste'molni prognozlash va "aqlli energetika"



infratuzilmasini barpo etish maqsad qilib qo'yilgan. SI texnologiyalaridan foydalangan holda energiya tizimida samaradorlikni oshirish, yo'qotishlarni kamaytirish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish strategiyaning muhim texnologik yo'nalishi sifatida qayd etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-son qarori yurtimizda QTEMni keng joriy etish va energiya tejamkor texnologiyalarni targ'ib qilishni maqsad qiladi: u 4300 MVt quvvatli yangi qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini (quyosh, shamol, kichik GES) yaratishni belgilaydi, davlat va investorlar uchun rag'batlantirish mexanizmlarini; kichik quvvatli quyosh panellari va energiya tejovchi uskunalarni ijtimoiy soha obyektlarida joriy etishni rejalashtiradi, shuningdek, ularni soliq va moliyaviy imtiyozlar bilan ta'minlash tartibini nazarda tutadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining "Elektr energetikasi to'g'risida"gi O'RQ-939-son Qonunida texnologiyalarni amalda qo'llash bo'yicha aniqroq me'yoriy talablar belgilangan. Ushbu hujjat energetika tizimida raqobatbardosh bozorni yaratish, avtomatlashtirilgan ma'lumotlarni yig'ish va real vaqt rejimida monitoring qilish, energiya iste'molini prognoz qilishni joriy etishni nazarda tutadi, shuningdek, yangi tartibga soluvchi organlar va "markaziy xaridor" modelini yaratishni tartibga soladi. Shuningdek, ushbu qonun bilan iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish maqsadida tariflarning shaffofligini va tariflarning haddan tashqari oshirilishini cheklash mexanizmlari belgilanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmonida mamlakatda QTEM sohasi va texnologik modernizatsiya masalalariga ustuvor ahamiyat berilgan. Farmonga ko'ra, mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatlarini 25 000 megavattga yetkazish va ularning umumiy energiya iste'molidagi ulushini 40 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Strategiya "yashil iqtisodiyot"ga o'tishni jadallashtirish, energetika bozorida "yashil sertifikat" tizimini joriy etish, ekologik markirovkalash va ekologik barqarorlikni baholash mexanizmlarini kuchaytirishni nazarda tutadi. Shuningdek, farmonda davlat xizmatlarini raqamli transformatsiya qilish, innovatsion boshqaruv va modernizatsiya qilish, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash uchun institutsional asos yaratish bo'yicha vazifalar belgilangan. Ya'ni, strategiya energetika sohasida "yashil" o'sishni va iqtisodiyotda esa raqamli-innovatsion yondashuvlarni jadallashtirishga qaratilgan.

"Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarga erishishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-sonli qarori bilan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" tasdiqlandi. Ushbu strategiya mamlakatning texnologik rivojlanishini yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan bo'lib, iqtisodiy, huquqiy hamda ilmiy infratuzilmalarni birlashtirgan holda ushbu yo'nalishda kompleks yondashuvni nazarda tutadi.

Strategiyada 2030-yilga kelib SI asosida yaratiladigan dasturiy mahsulotlar hamda xizmatlar bozorini 1,5 milliard dollargacha kengaytirish, davlat xizmatlarining kamida 10 foizini SI asosida avtomatlashtirish belgilangan bo'lib, bu davlat boshqaruvida samaradorlik, tezkorlik va inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv davlat sektorida raqamli transformatsiyaning chuqurlashuviga huquqiy asos yaratib, raqamli ma'muriy protseduralarni to'liq qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Strategiyaning muhim yo'nalishlaridan biri huquqiy asos va tartibga solish tartib-taomillarini yaratishdir. Unda SIni tartibga soluvchi, xususan, ushbu algoritmlarning

javobgarlik, shaffoflik, ma'lumotlarga egalik qilish va ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq munosabatlarini aniq belgilashga qaratilgan maxsus qonunlar, standartlar va axloqiy me'yorlarni shakllantirish zarurligi alohida ko'rsatilgan. Huquqiy yondashuvni kuchaytirish ma'lumotlarni qayta ishlash xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va SI yordamida qabul qilinadigan qarorlarning inson huquqlariga ta'sirini nazorat qilish kabi global standartlarga moslashishni ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, xalqaro hamkorlik, transchegaraviy axborot almashinuvi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim omil hisoblanadi.

Texnik infratuzilma strategiyasida "Big Data – katta ma'lumotlar" tizimini yaratish, yuqori quvvatli hisoblash markazlarini tashkil etish, ilmiy laboratoriyalar sonini oshirish ko'zda tutilgan. Ushbu ma'lumotlar infratuzilmasini shakllantirish SI modellarini o'qitish va sinovdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan keng ko'lamli ma'lumotlar to'plamlarini yaratadi. Mazkur ma'lumotlar maxfiylik, kirish cheklovlari va ruxsatnomalar bilan bog'liq qat'iy huquqiy me'yorlarga tayanadi. Axborot xavfsizligi talablarini kuchaytirish davlat ma'lumotlar bazalariga ruxsatsiz kirish yoki ularni manipulyatsiya qilish xavfini kamaytiradi. Shu bilan birga, hisoblash klasterlarini yaratish ilmiy tadqiqotlar, modellarni sinovdan o'tkazish va davlat xizmatlarida real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Umuman olganda, qayta tiklanadigan energiya sohasida va umuman energetika sektorida sun'iy intellektidan foydalanish energiya tizimining samaradorligi, boshqaruvchanligi va barqarorligini oshirishi mumkin. Biroq mamlakatimizda ushbu integratsiyaning huquqiy, texnik va institutsional asoslari endigina rivojlanmoqda va xorijda, xususan, Yevropa Ittifoqida ushbu soha uzoq yillardan beri rivojlanib kelmoqda, buning uchun yetarlicha huquqiy baza yaratilgan. Quyida tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlarga asoslanib, O'zbekistonning qayta tiklanadigan energiya sektorida sun'iy intellektning rolini tahlil qilish va tartibga solish bo'yicha tavsiyalar bermoqchimiz.

Maqolada huquqiy-dogmatik tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining ushbu sohadagi qonunchiligi o'rganilib, mavjud xalqaro standartlar, Yevropa Ittifoqining SI akti, NIST (National Institute of standards and Technology – Milliy Standartlar va Texnologiya Instituti) SI standartlari va BMTning Barqaror energiya tamoyillari bilan qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, sun'iy intellektning energetika sohasiga integratsiyasi bo'yicha xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalaridagi ilmiy nashrlar va ularda indekslangan nufuzli ilmiy jurnallarning qiyosiy tahlilidan foydalanildi. Huquqiy rejimlarni taqqoslash, me'yoriy-huquqiy bo'shliqlarni aniqlash va energetika sohasida sun'iy intellektni joriy etish samaradorligi to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasida energetika infratuzilmasi rivojlangan mamlakatlarda sun'iy intellektning sohaga integratsiyalashuv jarayoniga nazar tashlaydigan bo'lsak, sun'iy intellekt qayta tiklanuvchi energiya manbalarini optimallashtirish va prognozlashning asosiy vositasiga aylanganligini ko'rishimiz mumkin. Tehron universiteti tadqiqotchilari tomonidan Elsevier nashriyotining 2024-yilda "Renewable and Sustainable Energy Reviews" ("Qayta tiklanuvchi va barqaror energiya") jurnalida chop etilgan tadqiqotida 180 dan ortiq holatlar o'rganilgan bo'lib, ularning tahlil natijalariga ko'ra, mashinali o'rganish (Machine learning)dan foydalanish quyosh va shamol energiyasi ishlab chiqarish prognozlarini an'anaviy modellarga nisbatan o'rtacha 15–25 foizga yaxshilagan (Le Goff, 2025). Bu energetika tizimlarining rentabelligi va barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi. Tadqiqotda sohaning texnik, iqtisodiy va huquqiy jihatlarini mamlakatlar energetika sektori doirasida o'rganilib, umumiy xulosaga kelingan.

MDPI nashriyotining 2024-yilda “Barqaror energetika” bo‘limining II maxsus jildida chop etilgan meta-sharhlar sun’iy intellektga asoslangan quyosh radiatsiyasini bashorat qilish bo‘yicha 280 ta nashrni tizimlashtiradi (Shoei et al., 2024). Ushbu sharhda mualliflar rivojlanishning uchta yetakchi yo‘nalishini ajratib ko‘rsatadilar: birinchidan, neyron tarmoqlari va statistikaga asoslangan gibrid modellar; ikkinchidan: intellektual optimallashtirish (swarm intelligence) va genetika (genetic algorithms) algoritmlari; uchinchidan, sun’iy intellektning raqamli uskunalari(IoT) bilan kombinatsiyasi. Ushbu yondashuvlar hozirda Yevropa Ittifoqi, AQSh va Xitoyda qayta tiklanadigan energiya manbalarini boshqarish standartiga aylandi. Bundan tashqari, mualliflar kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim tendensiya sifatida Big data va katta hajmdagi ob-havo ma’lumotlari, sun’iy yo‘ldosh tasvirlari va sun’iy intellekt kabi ilg‘or hisoblash vositalarini birlashtirish yo‘nalishlarini ko‘rsatadilar. Ushbu yondashuvlar energetika sohasida quyosh energiyasiga asoslangan tizimlarning barqarorligini oshirish, tarmoq yuklamalarini muvozanatlash va energiya ta’minotining iqtisodiy samaradorligini oshirishda sun’iy intellekt integratsiyasining yuqori salohiyatini namoyon qiladi.

AQSh ilmiy doiralarida SIning QTEMga integratsiyasi ilmiy asoslangan yondashuv sifatida keng o‘rganilib kelinmoqda, masalan, AQSh Energetika Departamenti qoshidagi Lawrence Berkeley nomidagi milliy laboratoriya tadqiqotlari SI yordamida energiya saqlash tizimlari va tarqatilgan energiya resurslari optimallashtirilganda elektr tarmoqlaridagi yuklama tebranishlari 15–30 foizga kamayishi mumkinligini ko‘rsatadi (Chodakowska et al., 2024).

AQSh energetika tizimida SIning qo‘llanishi federal darajada strategik ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, 2023-yil 30-oktabrda qabul qilingan: “Safe, Secure, and Trustworthy Development and Use of Artificial Intelligence” Prezident Farmoni (Executive Order 14110) AQShda sun’iy intellektni xavfsiz, mas’uliyatli va bozor barqarorligini ta’minlagan holda rivojlantirishga qaratilgan eng muhim strategik-huquqiy hujjatlardan biridir (Lawrence Berkeley Laboratory, 2023). Farmonning markaziy yo‘nalishi, sun’iy intellekt tizimlarining milliy xavfsizlik, energetika infratuzilmalari, iqtisodiyot va jamiyat uchun potensial xatarlarini aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo‘yicha majburiy mexanizmlarni joriy etishga qaratilgandir. Hujjat ilg‘or model ishlab chiquvchilaridan safety-testlar (red-teaming, sistem risk assessment, cyber-resilience testlari)ni o‘tkazishni talab qiladi, federal agentliklarga esa energetika, transport, sog‘liqni saqlash, mudofaa kabi strategik tarmoqlarni SI dan xavfsiz foydalanish bo‘yicha sektoral standartlar ishlab chiqishni yuklaydi. Farmon ma’lumotlar boshqaruvi, algoritmik shaffoflik, diskriminatsiyaning oldini olish, “critical infrastructure” uchun SI-risklarni boshqarish kabi ustuvor yo‘nalishlarni belgilaydi. Shu bilan, farmon AQShda SI innovatsiyalari va milliy raqobatbardoshlikni qo‘llab-quvvatlash bilan birga, ularni qat’iy xavfsizlik, ishonchlilik va etik mezonlar asosida tartibga solishga qaratilgan kompleks davlat siyosatini shakllantiradi.

Aynan shu farmon doirasida NISTga SI modellarini sinovdan o‘tkazish va xavfsizlik standartlarini ishlab chiqish bo‘yicha vazifa yuklatilgan bo‘lib, NIST tomonidan ishlab chiqilgan SI Risk Management Framework (SI RMF 1.0) (Presidential Documents, 2023, October) qayta tiklanuvchi energiya infratuzilmasida SI modellaridan foydalanishning xavfsizlik, ishonchlilik va barqarorlik asoslarini belgilab beradi. Shuni ta’kidlab o‘tishimiz kerakki, NISTning o‘zi normativ-huquqiy reguliator emas, ammo uning standartlari AQSh federal agentliklari, xususan, energetika, mudofaa, transport va infratuzilma sohalari uchun majburiy tavsiya etiladigan texnik standart sifatida qabul qilinadi.

Shunga ko'ra, "SI Risk Management Framework" (RMF 1.0)da SI xavfini boshqarishda to'rt funksiyali (Govern, Map, Measure, Manage) yondashuvni taklif qiladi. U xavfsizlik, izohlanish, adolat, mas'uliyat va maxfiylik kabi tamoyillarni hayot siklida inobatga olishni tavsiya qiladi. Energetika sohasida ushbu ramka, masalan, smart grid, yuklama prognozi va avariya aniqlash uchun ishlatiladigan SI modellarida xavf-monitoring va regulyatorlik standartlarini amalda tatbiq etishga imkon beradi. Kelgusida NIST energetika sektori uchun maxsus "use-case profil" ishlab chiqish niyatida bo'lib, bu SI integratsiyasini barqaror va xavfsiz tarzda amalga oshirish uchun huquqiy-texnik bazani mustahkamlashi nazarda tutadi.

AQSh Energetika Departamentining (DOE) 2023-yilgi "AI for Energy" tashabbusi esa SI yordamida quyosh radiatsiyasi bashorati, energetik talab prognozi va real vaqt tarmoq boshqaruvini kuchaytirish yechimlarini amaliyotga joriy etmoqda[12]. Bu tashabbus AQShning energetik kelajagi uchun izlanishlar olib borayotgan olimlar, tadqiqotchilar va soha vakillari tomonidan sohani har tomonlama chuqur o'rganib, sektorlararo mavjud muammolarni aniqlab, ularga zamonaviy va xavfsiz yechimlar berishni nazarda tutadi.

Regulation (EU) 2024/1689 (2024) ("Artificial Intelligence Act" – Sun'iy intellekt to'g'risidagi qonun – Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan sun'iy intellektni tartibga soluvchi birinchi keng qamrovli huquqiy hujjat bo'lib, uning qabul qilinishi davr talabi bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Chunki ushbu hujjat SIning Yevropa Ittifoqi energetika tizimiga integratsiyalashuvi uchun fundamental huquqiy-me'yoriy asos yaratdi.

SI qonuni Yevropa Ittifoqiga a'zo barcha davlatlar uchun qabul qilingan birinchi sun'iy intellekt reglamenti bo'lib, "Regulation (EU) 2024/1689" nomi bilan rasman e'lon qilingan va 2024-yil 12-iyulda Yevropa Ittifoqining rasmiy jurnalida (Official Journal of the European Union) nashr etilgan. Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan 20 kun o'tib kuchga kirdi (kuchga kirish bosqichi) va uning moddalarida bosqichma-bosqich amalga oshirish rejasi mavjud: ayrim taqiqlangan amaliyotlar e'lon qilinganidan keyin qisqa muddat ichida amalga oshiriladi va uch uillik o'tish davrida yuqori xavfli tizimlarga qo'yiladigan talablar amalga oshiriladi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan ushbu Aktga ko'ra, barcha ittifoq a'zolari hududida elektr tarmog'i, yuklama boshqaruvi, energiya taqsimoti va tarmoq xavfsizligi bilan bog'liq SI tizimlari "yuqori xavfli" kategoriyaga kiritilgan bo'lib, ular uchun qat'iy talablar: ma'lumotlar sifati, modelning izohlanishi, inson nazorati, algoritmik audit, kiberxavfsizlik va operatsion barqarorlik shartlari majburiy hisoblanadi (European Union, 2024).

Yevropa Ittifoqida sun'iy intellektni tartibga soluvchi Artificial Intelligence Act – Sun'iy intellekt to'g'risidagi qonun, (Regulation (EU) 2024/1689) ijrosi ko'p darajali institutsional mexanizm asosida amalga oshiriladi. Yevropa Komissiyasi mazkur reglamentning asosiy ijro etuvchi va muvofiqlashtiruvchi organi bo'lib, uning vakolatlari Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi shartnomaning 17-moddasi (TEU) (European Data Protection Supervisor – Ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha Yevropa nazoratchisi, 2025) hamda Yevropa Ittifoqining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi shartnomaning 291-moddasi (TFEU, 2016) bilan tartibga solinadi. "Sun'iy intellekt to'g'risida"gi Qonun doirasida Komissiya ijro hujjatlarini qabul qilish, tekshiruvlar o'tkazish va a'zo davlatlarning, xususan, umumiy maqsadli sun'iy intellekt (GPAI) va yuqori xavfli sun'iy intellekt tizimlari bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish vakolatiga ega. Shu bilan birga, nizomda sun'iy intellekt qonunchiligini yagona talqin qilish, sun'iy intellekt qonunchiligi uchun tavsiyalar va ko'rsatmalar ishlab chiqishni nazarda tutuvchi Yevropa sun'iy intellekt kengashi (EAIB) tashkil etildi.

O'z navbatida, a'zo davlatlarda "Sun'iy intellekt to'g'risida"gi Qonunning to'g'ridan to'g'ri qo'llanishi milliy vakolatli organlar va bozor nazorati organlari orqali ta'minlanadi.



Bu Yevropa Ittifoqi shartnomasining 288-moddasiga muvofiq qoidalarni to'g'ridan to'g'ri qo'llashga asoslangan. Milliy organlar yuqori xavfli SI tizimlarini nazorat qilish, tekshirish va javobgarlik choralari belgilash vakolatiga ega va bu faoliyat Nizomda (EU 2019/1020 – Bozor nazorati to'g'risida) ham mustahkamlangan (TFEU, 2016). Shu tariqa, Yevropa Komissiyasi, EAIB va milliy organlar o'rtasidagi institutsional hamkorlikka asoslangan sun'iy intellekt to'g'risidagi qonunni amalga oshirish mexanizmi sun'iy intellekt sohasidagi asosiy huquqlarni himoya qilish va yagona ichki bozor barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bunday yondashuv, o'z navbatida, energetika infratuzilmasi uchun sun'iy intellekt tizimlarining nafaqat funksional, balki xavfsiz va bashorat qilinadigan bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hujjatda sun'iy intellektning umumiy maqsadli modellari yordamida ishlab chiqilgan energetik prognozlash, tarmoqlarni optimallashtirish yoki avariylarni aniqlash dasturlarida shaffoflik va texnik hujjatlashtirish talablari kuchaytirilmoqda, bu esa operatorlar tomonidan SI modellarining huquqiy maqomi va javobgarligini aniq belgilashga olib keladi.

Sun'iy intellekt to'g'risidagi qonunga kiritilgan tartibga soluvchi sinov muhiti (regulatory sandbox) esa QTEM tizimlari (quyosh prognozi, aqlli tarmoq) uchun innovatsion sun'iy intellekt yechimlarini nazorat ostida sinovdan o'tkazish imkonini beradi, bu esa huquqiy xavfsizlik va texnologik taraqqiyot o'rtasidagi muvozanatni yaratadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, sun'iy intellekt energetika sohasida sun'iy intellektni joriy etishning xavfsiz, mas'uliyatli va barqaror modelini taklif qiluvchi yetakchi xalqaro standartga aylanmoqda.

Yuqorida aytib o'tilganidek, sun'iy intellektni tartibga solish sohasida sun'iy intellekt qonuni energiya infratuzilmasini, xususan, energiya ta'minoti tizimlarini "yuqori xavf" tizimlariga kiritadi. Bunday ajratish sun'iy intellekt modellarining tarmoq xavfsizligi va nosozliklarga bardoshlilikini, shu jumladan, algoritmik audit, talqin qilish talablari va inson nazorati mexanizmlarini qat'iy nazorat qilishni talab etadi. Sanoat hamjamiyati ushbu talablarning amaliy yukini va sun'iy intellekt tizimlarining energiya resurslariga qo'shimcha yukni, ayniqsa, Ma'lumot markazlari orqali muvozanatlash masalasini ko'tarmoqda va me'yoriy standartlarni aniqlashtirish zarurligini ta'kidlamoqda.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, sun'iy intellekt texnologiyalarini qayta tiklanadigan energiya manbalariga integratsiyalash tizimli yondashuvni talab qiladi. Darhaqiqat, qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasida sun'iy intellektni joriy etish bilan bog'liq huquqiy muammolar mavjud bo'lib, ulardan birinchisi bu sun'iy intellekt ma'lumotlarining huquqiy maqomi hisoblanadi. Xususan, energiya iste'moli, ishlab chiqarish dinamikasi va tarmoq yuklamalari sun'iy intellekt modellarining asosiy ma'lumotlarini tashkil etadi. Biroq O'zbekistonda qonunchilikda energiya ma'lumotlari, "egalik huquqi", "tijorat siri maqomi", "ulardan uchdan bir qismi, masalan, sun'iy intellekt xizmatlaridan xususiy foydalanuvchilar" holatlari aniq belgilanmagan.

Asosiy masala, sun'iy intellekt xatolari uchun javobgarlik masalasi bo'lib, sun'iy intellekt algoritmlarini noto'g'ri prognoz qilish energiya balansining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, amaldagi qonunchilik doirasida O'zbekiston qonunchiligida sun'iy intellekt yetkazib beruvchisi, energiya operatori va davlat buyurtmachisi o'rtasidagi javobgarlik chegaralari aniq belgilanmagan.

Energiya xavfsizligi va kiberxavfsizlikka kelsak, sun'iy intellekt tizimlari IoT qurilmalari orqali ishlaydi. Kiberxavfsizlik bo'yicha maxsus normalar, masalan, "Elektron hukumat



to'g'risida"gi Qonun mavjud bo'lsa-da, energiya tizimining sun'iy intellektga asoslangan komponentlariga maxsus talablar hali ishlab chiqilmagan.

Xalqaro tajriba bilan taqqoslaganda, Yevropa Ittifoqining SI qonuni hujjatlarida energetika "yuqori xavfli soha" deb belgilangan, AQSh Energiya Departamenti esa sun'iy intellektni energiya balansida majburiy prognozlash vositasi sifatida qo'llaydi. O'zbekistonda hali bunday sektorlararo maxsus sun'iy intellekt standartlari mavjud emas.

O'zbekistonda normativ-huquqiy hujjatlar Lex.uz platformasi orqali e'lon qilinadi va ularning amal qilishi, odatda, "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonun asosida belgilanadi. SI Akti esa reglament sifatida Yevropa Komissiyasi, European Artificial Intelligence Board va milliy vakolatli organlar tomonidan bevosita ijro etiladi, bu esa sun'iy intellektni tartibga solishda markazlashgan va bir vaqtning o'zida desentralizatsiyalashgan institutsional modelni yuzaga keltiradi. Ilmiy nuqtayi nazardan, mazkur model O'zbekiston uchun istiqbolda sun'iy intellektni tartibga soluvchi maxsus qonun ishlab chiqishda, xususan, markaziy muvofiqlashtiruvchi organ va sohaviy nazorat mexanizmlarini joriy etishda muhim qiyosiy-huquqiy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

### **Xulosa**

O'zbekiston qonunchiligida sun'iy intellektga asoslangan qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish uchun keng me'yoriy-huquqiy asoslar, shuningdek, raqamlashtirish, avtomatlashtirish va aqlli texnologiyalarni joriy etish talablari mavjud. Bundan tashqari, davlat siyosati sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va raqamlashtirishni qo'llab-quvvatlaydi. Energiya samaradorligi to'g'risidagi yangi qonun loyihasi energiya auditi, monitoringi, tahlili jarayonlariga sun'iy intellektni jalb qilishni nazarda tutadi, bu esa o'z navbatida, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirish uchun asos yaratadi.

Albatta, sun'iy intellektning energetika sohasiga integratsiyalashuvining ijobiy va salbiy jihatlari mavjud bo'lib, ushbu xavf-xatarlar xorijiy davlatlarda qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlari, xavfsizlik bo'yicha yo'riqnomalar, huquqiy himoya mexanizmlari, javobgarlik va huquqlarni himoya qilish masalalari asosida hal etiladi.

Shunga o'xshash talablar O'zbekiston uchun milliy standartlarga kiritilishi kerak, chunki energetika davlatimizning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim infratuzilma hisoblanadi. Energetika vazirligi va Raqamli texnologiyalar vazirligiga sun'iy intellekt modellari auditini o'tkazish, texnologik xavflarni sug'urtalash va algoritmlarni ro'yxatdan o'tkazishni tavsiya etamiz.

Mamlakatning quyosh va shamol energiyasi salohiyatini hisobga olgan holda, sun'iy intellektni milliy energetika tizimiga integratsiya qilish imkoniyatlarini yuqori deb hisoblaymiz. Sun'iy intellektni maqsadli qo'llash qayta tiklanadigan energiya manbalarining iqtisodiy samaradorligi va ishonchliligini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi, bu esa ishlab chiqarishni prognozlashdan tortib, tarmoqlarni boshqarish va bashoratli texnik xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan sohalarning oshishiga olib keladi. O'zbekistonda qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish uchun fundamental huquqiy baza mavjud va sun'iy intellekt bo'yicha milliy siyosat ishlab chiqilmoqda. Sun'iy intellektning energetika sohasiga xavfsiz, keng ko'lamli integratsiyasi sanoat standartlari, mas'uliyat va kiberxavfsizlik qoidalari, shuningdek, kadrlar tayyorlashni talab qiladi. Qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish aqlli texnologiyalarni joriy etishni talab qiladi. Energetika sohasida sun'iy intellektni tartibga solishning huquqiy asoslarini yaratish nafaqat infratuzilmaning ishonchliligini, balki O'zbekiston iqlimining samaradorligini ham ta'minlaydi.

Ma'lumotlarning qiyosiy tahlilidan olingan natijalarimiz shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlar texnologik yetuklik va qat'iy tartibga solishning uyg'unligi tufayli sezilarli yutuqlarga erishdilar. O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalari va sun'iy intellektni rivojlantirish uchun fundamental huquqiy baza mavjud bo'lib, uni yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni beramiz:

1. Qayta tiklanadigan energiya manbalariga sun'iy intellektni integratsiyalash borasidagi, barcha soha ishtirokchilari uchun huquq va majburiyatlar aniq ko'rsatilgan nizom ishlab chiqish va qabul qilish.

2. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan hosil bo'ladigan energiyani ishlab chiqarish, saqlash, uzatish va yetkazib berish jarayonida ishtirok etuvchi sun'iy intellekt modellarini majburiy sertifikatlashni joriy etish.

3. Kiberxavfsizlik va texnologik xavflarni sug'urtalash qoidalarini belgilash.

Raqamli boshqaruv va energiya xavfsizligi tamoyillarini birlashtirgan me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish mamlakat uchun barqaror va texnologik jihatdan mustaqil kelajak sari muhim qadam bo'ladi.

## REFERENCES

1. Alsaigh, R., Mehmood, R., & Katib. I. (2023). AI explainability and governance in smart energy systems: A review. *Front. Energy Res.*, 11;1071291.
2. Chodakowska, E., Nazarko, J., Nazarko, Ł., & Rabayah, H. S. (2024). Solar Radiation Forecasting: A Systematic Meta-Review of Current Methods and Emerging Trends. *Energies*, 17(13), 3156. <https://doi.org/10.3390/en17133156>
3. Ember (2025). Q3 Global Power Report: No fossil fuel growth expected in 2025. <https://ember-energy.org/latest-insights/q3-global-power-report-no-fossil-fuel-growth-expected-in-2025/>
4. European Union. (2024). Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act). *Official Journal of the European Union*. <https://eur-lex.europa.eu>
5. European Data Protection Supervisor. (2025). AI Act Regulation (EU) 2024/1689.
6. European Parliament & Council of the European Union. (2024, June 13). Regulation (EU) 2024/1689 laying down harmonised rules on artificial intelligence and amending Regulations (EC) No 300/2008, (EU) No 167/2013, (EU) No 168/2013, (EU) 2018/858, (EU) 2018/1139 and (EU) 2019/2144 and Directives 2014/90/EU, (EU) 2016/797 and (EU) 2020/1828 (Artificial Intelligence Act). Publications Office of the European Union. <https://doi.org/10.2804/4225375>
7. European Union. (2019). Regulation (EU) 2019/1020 on market surveillance and compliance of products. *Official Journal of the European Union*. <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2019/1020/oj/eng>
8. IRENA. (2025). Renewable capacity statistics. IRENA ORG Publ. <https://www.irena.org/Publications/2025/Mar/Renewable-capacity-statistics-2025>
9. IRENA. (2025). Record-Breaking Annual Growth in Renewable Power Capacity, Pressreleases. <https://www.irena.org/News/pressreleases/2025/Mar/Record>
10. Le Goff, T. (2025, March). AI-Driven Sustainability in Energy Sector: Regulatory and Governance Issues. *Oxford Intersections: AI in Society*. <https://doi.org/10.1093/9780198945215.003.0027>
11. Lawrence Berkeley National Laboratory. (2023). Research – Lawrence Berkeley National Laboratory, <https://www.lbl.gov/research/>

12. NIST. (2023, January). Artificial Intelligence Risk Management Framework (AI RMF 1.0). <https://nvlpubs.nist.gov/nistpubs/ai/NIST.AI.100-1.pdf>
13. Organization for Economic Co-operation and Development (OECD). (2022). Uzbekistan 2022 Energy Policy Review. OECD Publ. [www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2022/10/uzbekistan-2022-energy-policy-review\\_b94a8e4a/be7a357c-en.pdf](http://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2022/10/uzbekistan-2022-energy-policy-review_b94a8e4a/be7a357c-en.pdf)
14. Oxford Insights. (2022). Harnessing AI for Development: Uzbekistan's Progress towards Becoming a Regional IT Hub. <https://oxfordinsights.com/insights/harnessing-ai-for-development-uzbekistans-progress-towards-becoming-a-regional-it-hub/>
15. Presidential Documents. (2023, October). Safe, Secure, and Trustworthy Development and Use of Artificial Intelligence Executive Order 14110. <https://www.govinfo.gov/content/pkg/FR-2023-11-01/pdf/2023-24283.pdf>
16. Report U.S. Department of Energy. (2024, April). AI for Energy Opportunities for a Modern Grid and Clean Energy Economy. [https://www.energy.gov/sites/default/files/2024-04/AI%20EO%20Report%20Section%205.2g%28i%29\\_043024.pdf](https://www.energy.gov/sites/default/files/2024-04/AI%20EO%20Report%20Section%205.2g%28i%29_043024.pdf)
17. Shoaie, M. et al. (2024). A Review of the Applications of Artificial Intelligence in Renewable Energy Systems: An Approach-based Study. *Renewable and Sustainable Energy Reviews*, 302. <https://doi.org/10.1016/j.enconman.2024.118207>
18. TEU. (2016). Consolidated version of the Treaty on European Union. [https://eur-lex.europa.eu/eli/treaty/teu\\_2016/oj/eng](https://eur-lex.europa.eu/eli/treaty/teu_2016/oj/eng)
19. TFEU. (2016). Consolidated version of the Treaty on the Functioning of the European Union. [https://eur-lex.europa.eu/eli/treaty/tfeu\\_2016/oj/eng](https://eur-lex.europa.eu/eli/treaty/tfeu_2016/oj/eng)
20. UNESCO. (2023). How the ISO and IEC Are Developing International Standards for the Responsible Adoption of AI. <https://www.unesco.org/en/articles/how-iso-and-iec-are-developing-international-standards-responsible-adoption-ai>
21. Xue, M., Nepal, S., Liu, L., Sethuvenkatraman, S., Yuan, X., Rudolph, C., Sun, R., & Eisenhauer, G. (2023). RAI4IoE: Responsible AI for Enabling the Internet of Energy. Proceedings — 2023 5th IEEE International Conference on Trust, Privacy and Security in Intelligent Systems and Applications, TPS-ISA 2023 (pp. 13–22). *IEEE, Institute of Electrical and Electronics Engineers*. <https://doi.org/10.1109/TPS-ISA58951.2023.00012>

Kelib tushgan / Получено / Received: 08.11.2025  
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 09.12.2025  
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.uzlawrev.2.4./MHBP4239

UDC: 341(045)(575.1)

## JSTGA QO'SHILISH JARAYONIDA TURIZMGA OID MILLIY QONUNCHILIKNI MUVOFIQLASHTIRISH MASALALARI

**Usmanova Surayyo Bultakovna,**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti  
professori v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

ORCID: 0000-0002-6624-7685

e-mail: s.b.usmanova@uwed.uz

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston Respublikasining Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida turizm sohasiga oid milliy qonunchilikni Xizmatlar savdosi bo'yicha bosh kelishuv (GATS) talablariga moslashtirish bilan bog'liq dolzarb masalalar tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi turizm xizmatlari bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirish, litsenziyalash hamda sertifikatlash tartib-taomillarini soddalashtirish zaruratini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-huquqiy, normativ-huquqiy va tahliliy metodlardan foydalanilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlarga mos huquqiy bazani shakllantirish turizm sohasining raqobatbardoshligini oshiradi. Tadqiqot xulosalari turizm siyosatini takomillashtirish va GATS majburiyatlarini milliy qonunchilikka joriy etishda amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** JST, GATS, turizm qonunchiligi, liberallashtirish, investitsiya, milliy manfaatlar

## ВОПРОСЫ ГАРМОНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О ТУРИЗМЕ В ПРОЦЕССЕ ВСТУПЛЕНИЯ В ВТО

**Усманова Сурайё Бултаковна,**

доктор философии по юридическим наукам, и. о. профессора  
Университета мировой экономики и дипломатии

**Аннотация.** В статье проанализированы актуальные вопросы, связанные с приведением национального законодательства Республики Узбекистан в сфере туризма в соответствие с требованиями Генерального соглашения по торговле услугами (GATS) в процессе присоединения страны к Всемирной торговой организации. Основной целью исследования является научное обоснование необходимости поэтапной либерализации рынка туристических услуг, а также упрощения процедур лицензирования и сертификации. В ходе исследования использованы сравнительно-правовой, нормативно-правовой и аналитический методы. Полученные результаты показывают, что формирование правовой базы, соответствующей международным стандартам, способствует повышению конкурентоспособности туристической отрасли. Выводы исследования обладают практическим значением для совершенствования туристической политики и имплементации обязательств по GATS в национальное законодательство.

**Ключевые слова:** ВТО, ГАТС, туристическое законодательство, либерализация, инвестиции, национальные интересы

## ISSUES OF HARMONIZING NATIONAL LEGISLATION RELATED TO TOURISM IN THE PROCESS OF JOINING THE WTO

**Usmanova Surayyo Bultakovna,**

Acting Professor of the University of World Economy  
and Diplomacy,  
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

**Abstract.** The article analyzes topical issues related to harmonizing the national legislation of the Republic of Uzbekistan in the tourism sector with the requirements of the General Agreement on Trade in Services (GATS) in the context of the country's accession to the World Trade Organization (WTO). The purpose of the study is to provide a scientific justification for the need to gradually liberalize the tourism services market and to simplify licensing and certification procedures. The research employs comparative legal, normative-legal, and analytical methods. The findings indicate that the formation of a legal framework aligned with international standards enhances the competitiveness of the tourism sector. The conclusions of the study have practical significance for improving tourism policy and implementing GATS commitments into national legislation.

**Keywords:** WTO, GATS, tourism legislation, liberalization, investment, national interests

### Kirish

Dunyoning ko'p hududlarida qo'llanadigan cheklangan rivojlanish usullariga nisbatan xalqaro turizmni erkinlashtirish taraqqiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. U millatlar, madaniyatlarni demokratiya hamda fikr erkinligi, global tinchlik va o'zaro tushunish, inson huquqlariga hurmat va samarali boshqaruv g'oyalariga yaqinlashtirishi mumkin. Bu eski, atrof-muhitga zararli texnologiyalar o'rniga zamonaviyroq qurilmalarning joriy etilishiga olib kelishi, shuningdek, u barqaror rivojlanish muammolarini hal qilishda zarur bo'lgan mablag'larni yuzaga keltirishi ehtimoli ham yo'q emas. Ushbu o'zgarishlarning ro'yobga chiqishi duch kelayotgan to'siqlarni yengib o'tish qobiliyatimizga bog'liq. Hokman ta'kidlaganidek, "GATSni kelajakdagi erkinlashtirish uchun platforma sifatida ko'rish eng to'g'ri yo'l bo'lib, agar izohlar kiritilgan bo'lsa, uni hech qanday erkinlashtirishga olib kelmagan vosita sifatida emas, balki aynan boricha qabul qilish lozim" (Hockman, 1993).

Dastlabki JST a'zolari xizmatlar savdosiga oid munosabatlarni liberallashtirishni istamadilar. JSTga yangi qo'shilgan a'zolar (garchi savdo ta'siri nuqtayi nazaridan bo'lmasa ham) yo ishontirish yo majbur bo'lish yoki qisman ikkalasi tufayli sezilarli darajada ko'proq liberallashtirdilar (Mitsuo et al., 2009).

Dastavval GATSni ishlab chiqish ochiq bozorlar va global kirish imkoniyatini oshirishga emas, balki tenglik, ishtirok etish va rivojlanish kabi kengroq masalalarga asoslanishi kerak edi. Agar shunday bo'lsa, GATS rag'batlantiradigan boshqaruvdagi o'zgarishlarga bardosh berish, resurslarni mahalliy jamoalarga yo'naltira olish va yuzaga keladigan ekologik bosimlarni yengish uchun mexanizmlar yaratilishi kerak bo'ladi (Darren, 2002).

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi nisbatan yosh bo'lib, qo'llab-quvvatlashni talab qiladi, ayniqsa, uning ish o'rinlarini yaratish va ishsiz aholini ish bilan ta'minlashdagi ijtimoiy omilini hisobga olgan holda hukumatning mazkur sohada oldiga qo'yilgan vazifalaridan



biri mamlakatda turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, investitsiyalarni jalb qilish, mamlakat ichida muqobil imkoniyatlar yaratish va tashqi va ichki turizm maqsadida choralar ko'rishdan iborat. Bizning nuqtayi nazarimizga ko'ra, xorijiy davlatlarning yirik sayyohlik kompaniyalari va jahon turizm sanoati yetakchilarining bozorga kirishi mamlakatimizdagi yosh kompaniyalarning past raqobatbardoshlik xavfini keltirib chiqaradi hamda keyinchalik ularning bankrotligiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, turizm bo'yicha tashqi savdo balansiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan, fuqarolarimizni chet ellarga jo'natish bilan shug'ullanadigan mamlakat kompaniyalarida xorijiy kapital ulushini cheklash muhim bo'lardi.

### **Asosiy qism**

O'zbekistonning ushbu tashkilotga a'zoligi mamlakat uchun qanday mazmun kasb etadi degan savolga biroz to'xtalsak. X. Islamxo'jayevning (2020) fikriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi hukumati tanlagan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini rivojlantirishga, ochiq demokratik jamiyat qurishga qaratilgan yo'lga xalqaro savdo tizimida faol ishtirok etmay va uning afzalliklaridan foydalanmay turib, erishib bo'lmaydi. Bular orasida eng ochig'i va bashorat qilish mumkin bo'lgani Jahon Savdo Tashkiloti (JST)ga a'zo mamlakatlar bozorlariga kirish, chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun maqbul shart-sharoitlarni, savdo-sotiqning jahon qoidalarini shakllantirishda ishtirok etish imkoniyatini yaratish, savdo-sotiqqa doir nizolarni hal etishning JST tizimidir. Bundan tashqari, JST o'z faoliyatida nafaqat xalqaro savdo masalalariga, balki tashqi iqtisodiy faoliyat sohasiga kiruvchi deyarli barcha masalalarga u yoki bu tarzda daxl qiladi.

Bundan tashqari, JSTga qo'shilish savdo aylanmasining ko'payishi, tovar raqobatining kuchayishi va buning natijasida narxlarning pasayishidan iborat sof iqtisodiy afzalliklarga ham ega. D.D. Abdurasulova (2021) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tashqi savdo almashinuvining ko'pgina hollarida O'zbekiston uchun jahon bozorlariga chiqish qiyin kechmoqda, chunki respublikamiz eksport-import operatsiyalarining 2/3 qismi JSTga a'zo davlatlar ulushiga to'g'ri keladi. O'zbekistonning milliy mahsuloti mazkur davlatlarning bozorlarida nafi kamroq shartlarda taqdim etilgan. Tadqiqotchining fikricha, transformatsiya maqsadlariga erishish va raqobatbardosh iqtisodiy tizimni shakllantirish Jahon Savdo Tashkiloti bitimlarida taqdim etilgan global iqtisodiyot mexanizmlariga qo'shilish zaruratini keltirib chiqaradi.

Mamlakat Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2023-yilning 19-sentabrida BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida Jahon Savdo Tashkilotiga to'laonli a'zo bo'lishni iqtisodiyotimizni liberallashtirish yo'lidagi ustuvor vazifa sifatida ta'kidladi. "O'zbekiston-2030" taraqqiyot strategiyasida ham bu tashkilotga a'zolik alohida maqsad sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi JSTni ta'sis etish to'g'risidagi Marokash kelishuviga qo'shilish va davlatning JSTga a'zo bo'lishi to'g'risidagi protokolni imzolash orqali tashkilotga to'laonli a'zo bo'ladi, shu jumladan, Marokash kelishuvlar paketining bir qismi sanaluvchi GATS bitimining ham ishtirokchisiga aylanadi.

Yana bir e'tiborli jihati O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprel kuni umumxalq ovoz berish yo'li bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 67-moddasida: "Davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlaydi. Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli. O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlanadi. Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi", – deyilgan.

Shu bilan birga, Jahon Savdo Tashkiloti, jumladan, Yevropa Ittifoqi a'zolari bilan muzokaralar jarayonida o'zaro yon berishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi turoperator va sayyohlik agentliklari ustav fondidagi xorijiy kapitalga qo'yilgan cheklovlarni bekor qilishga rozi bo'lmoqda. Bunda O'zbekiston Respublikasining prinsipial pozitsiyasi xorijiy fuqarolar va yuridik shaxslarning gidlar (gid-tarjimonlar) xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini cheklash zarurati hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi hududida gidlar (gid-tarjimonlar) va ekskursiya rahbarlari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari yoki rezidentlari bo'lishi shartligi muzokaralarda kelishilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi nisbatan yangi va rivojlanayotgan yo'nalish hisoblanadi. U iqtisodiyotda ijtimoiy ahamiyatga ega soha bo'lib, yangi ish o'rinlari yaratish va ishsizlikni kamaytirish nuqtayi nazaridan muhim omil sanaladi. Biroq so'nggi yillarda, xususan, COVID-19 pandemiyasi davrida bu soha jiddiy zarar ko'rdi:

- 2019-yilda 6,7 million sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa,
- 2020-yilda bu ko'rsatkich 1,5 milliongacha qisqardi,
- 2022-yilda esa sayyohlar soni 5,2 millionga yetdi.

Bu bilan birga, pandemiya keyin ko'plab turistik agentliklar, gidlar va boshqa xizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyatini to'xtatgan yoki qisqartirgan.

Ma'lumki, 2017-yildan O'zbekiston hukumati turizmni strategik soha deb e'tirof etgan. Jumladan, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish hamda ichki turizmni rag'batlantirish orqali aholining xorijiy safarlariga to'sqinlik qilmaydigan, lekin mamlakat ichida ham sayohat qilish imkonini yaratadigan muqobil xizmatlar bilan ta'minlash masalalari nazarda tutiladi.

Yevropa Ittifoqi O'zbekistondan turizm xizmatlari sektorida xorijiy kapitalga qo'yilgan cheklovlarni olib tashlashni so'ramoqda. O'zbekiston bu talabga nisbatan ehtiyotkorona yondashmoqda, zero, chet el kapitalining kirib kelishi raqobatni kuchaytirib, mahalliy, ayniqsa, yangi tashkil etilgan kompaniyalarni bankrotlikka olib kelish xavfi bor. Shu sababli, xorijiy sarmoyadorlar faqatgina tajribali (kamida 5 yil faoliyat yuritgan) kompaniyalar bo'lishi kerak, degan talab qo'yilgan. Turistik xizmatlar, ayniqsa, gid (gid-tarjimon) faoliyatini esa faqat O'zbekiston fuqarolari yoki rezidentlari bajarishi shart, degan qat'iy pozitsiya mavjud.

O'zbekistonning hozirgi yondashuvi bir tomondan ichki bozorni himoya qilishga qaratilgan bo'lsa, boshqa tomondan JST a'zoliqi yo'lida murosali pozitsiyani ham ko'rsatmoqda. Buning natijasida chet el investitsiyalariga nisbatan cheklovlar sekin-asta yumshatilmoqda. Lekin (ichki bozorni himoya qilish maqsadida) milliy manfaatlar, xususan, madaniy merosni saqlash va ijtimoiy bandlikka zarar yetkazmaslik tamoyillariga sodiqlik saqlanmoqda. Hukumatning qo'llab-quvvatlash mexanizmlari faqat mahalliy yuridik shaxslar va fuqarolarga mo'ljallangani bilan ichki iqtisodiy himoya saqlanmoqda.

Turizm xizmatlari savdosini liberallashtirish bevosita umumiy xizmatlar sohasidagi iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish bilan bog'liqdir. Shu bois mazkur sohaning normalarini milly qonunchilikka moslashtirish aloqador sohalardagi qonunchilikni liberalashtirishga asoslanadi.

Misol tariqasida, AQShning tashqi savdo siyosatini tartibga soluvchi muhim hujjatlardan biri – 1984-yildagi "Savdo va ta'riflar to'g'risida"gi qonunini olaylik. U Ronald Reygan davrida qabul qilingan bo'lib, AQShning xalqaro savdodagi manfaatlarini himoya qilish, erkin savdoni rivojlantirish va adolatsiz savdo amaliyotlariga qarshi choralarni kuchaytirishga qaratilgan edi.

Uning muhim jihatlaridan biri xizmatlar savdosini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan. Xususan, uning xizmatlar savdosidagi ahamiyati quyidagilarda ko'rinadi:

1. Xizmatlar bo'yicha xalqaro muzokaralarga yo'l ochdi:

- 1980-yillarda xizmatlar (bank, sug'urta, transport, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya va boshqalar) xalqaro savdoda tobora muhim bo'lib borayotgan edi;
- qonun AQSh hukumatiga nafaqat tovarlar, balki xizmatlar savdosi bo'yicha ham xalqaro kelishuvlar tuzish vakolatini berdi.

2. *Fast Track Authority* (tezlashtirilgan tartib):

- prezident xizmatlar savdosi bo'yicha bitimlarni tezlashtirilgan tartibda Kongressga kiritishi mumkin bo'ldi;
- bu keyinchalik GATT muzokaralarining yangi bosqichi – Urugvay Raundi (1986–1994)da xizmatlar savdosini xalqaro savdo tizimiga qo'shishda hal qiluvchi rol o'ynadi.

3. Xizmatlarni xalqaro savdo tizimiga kiritish:

- 1984-yildagi qonun AQSh pozitsiyasini aniqlab berdi: AQSh xizmatlar bozorini ochishni talab qildi va boshqa davlatlar bozorlariga o'z xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalarini kirita boshladi;
- bu jarayon natijasida 1995-yilda Jahon Savdo Tashkiloti (JST) doirasida Xizmatlar savdosi bo'yicha umumiy kelishuv (GATS) qabul qilindi.

4. AQSh xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalarini himoya qilish:

- qonun xorijiy davlatlar tomonidan AQSh banklari, sug'urta kompaniyalari va texnologiya firmalariga qo'yilayotgan cheklolarga qarshi huquqiy asos bo'ldi;
- bu orqali AQSh o'z xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalarini xalqaro miqyosda raqobatbardosh qilishni maqsad qilgan.

1984-yilgi qonunning xizmatlar savdosini tartibga solishda uch asosiy ahamiyati mavjud:

1. AQShga xizmatlar bo'yicha xalqaro bitimlar tuzish vakolatini berdi.

2. Xizmatlar savdosini global savdo qoidalariga kiritishga asos bo'ldi (GATS orqali).

3. AQSh xizmat ko'rsatuvchi sektorini himoya qildi va xorij bozorlariga kirishini osonlashtirdi.

Ya'ni bu qonun tufayli xizmatlar savdosi ilk bor jiddiy tarzda xalqaro savdo siyosatining bir qismiga aylandi. 1984-yilgi qonun AQShning JSTdagi pozitsiyalarini belgilab bergan hujjatlardan biri bo'lgani uchun O'zbekiston JSTga a'zo bo'lish jarayonida AQSh talab va shartlarini hisobga olishi kerak bo'ldi.

Bu qonun O'zbekistonga bevosita emas, balki bilvosita ta'sir qilgan. Ya'ni u global savdo qoidalarini shakllantirgan va mustaqillikdan keyingi O'zbekiston–AQSh savdo munosabatlariga huquqiy asos bo'lib xizmat qilgan.

Ma'lumot uchun, 2023-yilda turizm xizmatlari eksporti 2,1 mlrd dollarni, transport xizmatlari esa 1,6 mlrd dollarni tashkil etdi. Umumiy xizmatlar eksporti 4,823 mlrd dollarga yetib, 119 foiz o'sish qayd etildi.

JSTning Xizmatlar savdosi to'g'risidagi bosh kelishuvi (GATS) bo'yicha turizm eng ochiq va erkinlashtirilgan yo'nalishlardan biri. Bu O'zbekiston global savdo tizimiga kirganida turizm xizmatlari o'ziga xos “eksport quroli” bo'lishi mumkin, demakdir.

1984-yildagi AQSh qonunida *Fast Track Authority* (savdo bitimlarini tezlashtirilgan tartibda ratifikatsiya qilish), adolatsiz savdo amaliyotlariga qarshi choralar, xizmatlar savdosini tartibga solish, bozorlarni ochish va ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish asosiy yo'nalishlar edi.

O'zbekistonda “Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida”gi Qonunni AQShning 1984-yildagi “Savdo va ta'riflar to'g'risida”gi qonuni asosida implementatsiya qilish orqali sezilarli darajada takomillashtirish mumkin.

1. “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonun (1991-y., hujjat yangi tahrirda qabul qilingan). Bu qonun xizmatlar va tovar savdosi, xalqaro bitimlar va tashqi iqtisodiy munosabatlarni tartibga soladi. Qonun moddalarini quyidagi qo‘shimchalarni kiritish orqali takomillashtirish taklif etiladi. Qonunning 10-moddasi (“Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik”)ga qo‘shimcha sifatida:

– “*Xizmatlar savdosi bo‘yicha xalqaro bitimlarni tuzish va ratifikatsiya qilish bo‘yicha Fast-Track tartibi joriy etiladi*” jumlasini kiritish.

11-modda (“Tashqi savdo faoliyati”)dagi “xizmatlar” kontseptsiyasida:

– transport, AT, turizm, bank, sug‘urta xizmatlarini alohida ajratib ko‘rsatish;  
– adolatsiz savdo (demping, subsidiya) bo‘yicha javob choralarini kiritish (masalan, vaqtinchalik tarif/kvo ta‘siri) maqsadga muvofiq.

2. “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonun (2012-y.) adolatsiz savdo amaliyotlariga qarshi (masalan, demping va subsidiya) kurashish mexanizmini belgilaydi. Demping va subsidiya bo‘yicha bozorni buzuvchi amaliyotlarga qarshi favqulodda chora ko‘rish mexanizmini ishlab chiqish (masalan, vaqtinchalik qo‘shimcha boj yoki sanksiyalar joriy qilish imkoniyati) taklif etiladi.

3. “Bojxona kodeksi” (1997-y., yangi tahrirda qabul qilingan). Bu kodeks import va eksport tartibini, shuningdek, transport va tovarni rasmiylashtirish bo‘yicha aniq qoidalarni belgilaydi. Kodeks moddalariga quyidagi qo‘shimchalarni kiritish taklif etiladi.

Iqtisodiy siyosat choralari (masalan, 15-moddaga) bozorning himoyasi va eksportni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni, masalan, xizmatlar eksporti (turizm, tranzit transport) uchun vaqtincha boj imtiyozlari yoki tarif zarar qoplamalarini kiritish maqsadga muvofiq.

“Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunning 10- va 11-moddalariga kiritiladigan qo‘shimchalar *Fast-Track* tizimi va xizmatlar savdosi bo‘yicha bitimlar uchun yuridik asos bo‘lib xizmat qiladi.

1984-yilgi AQSh qonunidagi *Fast Track* mexanizmlari, xizmatlar savdosi tartibi, adolatsiz savdoga qarshi chora ko‘rish va ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish yo‘nalishlari O‘zbekistonning yuqoridagi qonunlari orqali samarali implementatsiya qilinishi mumkin.

Tizimli tarzda tahlil etiladigan bo‘lsa, O‘zbekistonning GATS (*General Agreement on Trade in Services*), ya‘ni Xizmatlar savdosi bo‘yicha bosh kelishuvga a‘zo bo‘lib, JST doirasida turizm sohasiga taalluqli qonunlarga qanday o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar joriy etish jarayoni quyidagilarni qamrab olishi lozim:

1. Turizm xizmatlari GATS doirasida tartibga solinadi.

GATS turizm va sayyohlik xizmatlarini xizmatlar sohasining bir qismi sifatida tartibga soladi. Yetkazishning to‘rt rejimi, ya‘ni xizmatni chet elga yetkazish, iste‘mol uchun chet elga borish, tijorat ishtiroki (filial ochish) va shaxsiy yetkazish turizmga ham tegishlidir. JST a‘zolari turizmning har bir kichik sohasi (mehmonxona, restoran, sayyohlik agentliklari, qo‘llanmalar va boshqalar) bo‘yicha majburiyatlar ro‘yxatini tayyorlaydi va bu rejimlarni aniq belgilaydi.

2. Regulyatorlik (nazoratni amalga oshirish), milliy davra va chet el investorlar uchun teng sharoit yaratish zarurati.

Ma‘lumki, GATS bo‘yicha milliy rejim (*national treatment*) va eng ko‘p qulaylik tug‘diruvchi rejim (MFN) prinsiplari amal qiladi. Bunda odatda chet el firmalari uchun O‘zbekiston ichki bozorida teng sharoit yaratish – masalan, sayyohlik agentliklari, turoperatorlarining joriy etilish rejasi va chet el kapitali ulushiga oid cheklavlarning bekor qilinishi talab etiladi.

### 3. Milliy qonunchilik bazasini turizm xizmatlariga moslashtirish.

O'zbekistonda 2019-yilda "Turizm to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan bo'lib, unda turizm agentliklarining faoliyati litsenziya asosida amalga oshirilishi, turizm xizmatlarining turlari (madaniy, gastronomik, biznes, ekologik va h.k.) aniq kiritilgan. Shu va boshqa aloqador qonunchilikka JST talablariga mos ravishda qo'shimchalar kiritish lozim.

### 4. GATS asosida xalqaro tajribaga mos keladigan maxsus dastur tuzish zarurati.

Ilmiy tadqiqotlar hamda xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda GATSGa mos ravishda turizm xizmatlari tartibini aniqlash, chet el agentliklariga bozorni ochish, milliy manfaatlarni hisobga olgan holda maxsus harakatlar dasturi ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Milliy qonunchilikni moslashtirish talabidan kelib chiqib, yuqoridagi qonunlar bilan bir qatorda yana bir qancha normativ huquqiy hujjatlarga o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritish taklif etiladi.

Xususan,

#### 1. Qonunlar:

A) "Turizm to'g'risida"gi Qonunning (O'RQ-549, 2019-y.) 3-moddasi ("Asosiy tushunchalar"). Hozirgi ta'rifda gid va ekskursovodlar "O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxs" deb cheklanadi. Ushbu ta'rif "gid (ekskursovod) – O'zbekiston hududida qonuniy asosda faoliyat yuritayotgan jismoniy shaxs (rezident yoki norezident), belgilangan malaka talablari asosida xizmat ko'rsatuvchi mutaxassis" deya kengaytirilishi taklif etiladi.

GATSning milliy rejim va bozorga kirish tamoyillariga muvofiq a'zo davlatlar diskriminatsion rezidentlik talabini olib tashlaydi. Lekin mazkur taklif yuzasidan tadqiqotchi O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasida faoliyat yurituvchi xodimlar bilan olib borgan intervyularda bu inobatga olinmasligi ta'kidlandi. Zero, amaliyotga ko'ra, JSTga kirish jaryonida davlatlar milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda muayyan sohalarga xorijiy yuridik shaxslarning kirishi bo'yicha cheklovlar qo'yishga vakolatlidir.

Masalan, Rossiya Federatsiyasi misolida tahlil qilsak, mamlakat o'zining Maxsus majburiyatlar ro'yxatida turizm sohasida quyidagi xizmat turlarini (JST tasnifiga ko'ra) belgilagan: turoperatorlar va turagentlar xizmatlari; ekskursiya xizmatlari, mehmonxona va restoran xizmatlari (shu jumladan, ovqatlanish xizmatlari).

Birinci ikki yetkazib berish usuli bo'yicha Rossiya xorijiy yetkazib beruvchilar uchun sayohat xizmatlari bozorini to'liq ochadi. Yetkazib berishning uchinchi usuli – tijorat mavjudligi bo'yicha Rossiya cheklovlar qo'yadi, ya'ni faqat Rossiya Federatsiyasining yuridik shaxsi mehmonxona va restoran faoliyati bilan shug'ullanishiga ruxsat beriladi. Turoperatorlar va sayyohlik agentliklariga xizmat ko'rsatuvchi, shuningdek, ekskursiya xizmatlarini taqdim etuvchi kompaniyalar uchun xorijiy tijorat mavjudligi (xorijiy kompaniyalar filiallarini ochishga) faqat tijorat tashkiloti hisoblangan Rossiya Federatsiyasining yuridik shaxsi shaklida ruxsat etiladi. Shu jumladan, gidlar ham davlat fuqarolari bo'lishi lozim. Chet el ishtiroki bo'lgan tijorat tashkilotining xorijiy a'zosi turoperator xizmatlarini ko'rsatish tajribasiga ega bo'lgan yuridik shaxs bo'lishi shart (Azar, 1999).

Tadqiqotchi olgan intervyular davomida ta'kidlanishicha, mamlakat fuqarosi bo'lmagan gidning O'zbekiston tarixini turli manbalardan o'rgangan holda turistlarga ma'lumotlar berishi davlatimiz haqida yolg'on tasavvurlar shakllanishiga sabab bo'ladi, mazkur cheklov o'rnatilishining muhim sabablaridan biri ushbu holatning oldini olishdan iborat. Yolg'on ma'lumotlar bilan tasavvur uyg'otish esa, o'z navbatida, davlatning xalqaro nufuziga ta'sir qilishi mumkin.



Qozog'iston Respublikasi 2015-yilda Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lib, turizm xizmatlari sohasida GATS majburiyatlarini bosqichma-bosqich joriy etgan. Xususan, turoperatorlik va mehmonxona xizmatlari bo'yicha xorijiy investorlar uchun bozorga kirish imkoniyati yaratilgan. Shu bilan birga, Qozog'iston gid-ekskursovodlik faoliyatini milliy fuqarolar bilan cheklagan, xorijiy kompaniyalarning faoliyati esa asosan mahalliy yuridik shaxs shaklida amalga oshirilishini talab qilgan. Ushbu yondashuv milliy manfaatlarni himoya qilgan holda liberallashtirish imkonini bergan (Ibragimova, 2020).

A) "Turizm to'g'risida"gi Qonunning 20-("Turistik faoliyatni litsenziyalash"), 21-22-23-moddalariga qo'shimcha bandlar kiritish tavsiya etiladi:

20-modda (yangi 4–7-qismlar):

1. "Litsenziya talablari va tartib-taomillari obyektiv, oshkora va mutanosib bo'lishi shart; ular GATSning VI-moddasiga muvofiq xodimlarning malakasini hamda iste'molchi xavfsizligini ta'minlash uchun keragidan ortiq to'siqlarni yaratmasligi lozim".

2. "Turoperatorlik va turagentlik faoliyatiga kirishda iqtisodiy ehtiyoj testi (ENT), kvotalar yoki filiallar sonini cheklash kabi miqdoriy cheklovlar taqiqlanadi (O'zbekistonning GATS majburiyatlar jadvalida boshqa qoidalar qayd etilmagan bo'lsa)".

3. "Xorijiy yuridik shaxslar tomonidan filial/vakolatxona (3-rejim) orqali ko'rsatiladigan turizm xizmatlariga nisbatan milliy rejim va MFN tamoyillariga zid bo'lgan talablar qo'yilmaydi".

21-modda ("Sertifikatlashtirish") – texnik talablar bo'yicha:

"Sertifikatlashtirish mezonlari xalqaro tan olingan standartlarga (masalan, ISO) mos bo'ladi va rezidentlik/asosiy joylashuv mezonlari bo'yicha farqlashga yo'l qo'yilmaydi; loyihalar kamida 60 kun oldin jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilinadi".

22-modda ("Standartlashtirish") – shaffoflik:

"Turizm xizmatlariga oid yangi standartlar bo'yicha oldindan xabardor qilish va izohlar qabul qilish tartibi belgilanadi (kamida 60 kun), qabul qilingach matnlar ochiq e'lon qilinadi" (GATS III-modda – shaffoflik).

23-modda ("Gid va ekskursovodlarning malakasini sertifikatlashtirish") – tan olish:

"Chet elda olingan malaka/sertifikatlar o'zaro tan olish tamoyillariga muvofiq (GATS VII-modda) ekvivalentlik asosida tan olinadi; zarur hollarda test yoki qisqa moslashuv yo'li bilan tasdiqlanadi; fuqarolik/rezidentlik cheklovlari qo'llanmaydi".

B) "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-701, 2021-y.) moddalarida turizmga nisbatan umumiy normalarni GATSning ichki tartibga solish intizomlariga moslashtirish tavsiya qilinadi. Jumladan, yangi 20-moddaga (1) (sektorlararo qoidalar)ni qo'shish maqsadga muvofiq:

1. Turizm xizmatlari bo'yicha barcha ruxsatlar yagona elektron portalda, aniq vaqt me'yorlari va apellyatsiya tartiblari bilan ko'rsatiladi;

2. Talablar mutanosib va maqsadga muvofiq bo'lishi, iqtisodiy ehtiyoj testi kiritilmasligi;

3. To'liq ingliz tilidagi shakllar va to'lovlar ro'yxati e'lon qilinishi lozim.

Shu o'rinda, JSTga qo'shilish jarayonida Xitoy tajribasiga to'xtalsak. Qo'shilish jarayonida o'z manfaatlarini imkon qadar himoya qila olgan va o'z shartlarini belgilay olgan ko'plab davlatlar mavjud. Masalan, Xitoyni olaylik. Investorlar Xitoy aksiyalari narxini oshirib, ularni qayta sotishni xohlagan bo'lsa-da, hukumat bu jarayonni iloji boricha qiyinlashtirishgan, hatto ba'zida shartnoma majburiyatlarini bajarmaslikka uringan. Xitoy JSTga a'zo bo'lganidan so'ng uning yalpi ichki mahsuloti to'rt barobar, ya'ni 2001-yildagi 1049 mlrd dollardan 2010-yilda 4534 mlrd dollargacha o'sdi. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi esa ikki

barobardan ziyod ko'paydi. Xizmat ko'rsatish sohasiga kelsak, Xitoy 2001-yil dekabr oyida rivojlanayotgan mamlakat maqomida o'n besh yil davomidagi uzoq muzokaralardan so'ng JSTga a'zo bo'ldi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasini xorijiy kapitalga ochish bo'yicha cheklovlarni saqlab qolish huquqini qo'lga kiritdi (Xiaohui, 2011). Bu faktlar Xitoy ushbu xalqaro tashkilotga qo'shilishdan ko'proq manfaat ko'rganini va o'z iqtisodiy rivojlanishida katta yutuqlarga erishganini ko'rsatadi. Shu bois, O'zbekistonning JSTga kirishi jarayonida yengillashtirilgan litsenziya tartibi qoldirilishi, sertifikatlashning mamlakat fuqarolari bilan teng qoidalari joriy etilishi, avvalo, davlat manfaatlarini himoya qilish hamda xorijiy davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya Respublikasi) amaliy tajribasiga asoslanadi.

### **Xulosa**

xalqaro tashkilot mavjud emas (Rasulov, 2025). “Noqonuniy migratsiya” tushunchasi ilmiy va maxsus adabiyotlarda turlicha ifodalanganligi sababli hozirgacha uning yagona ta’rifi mavjud emas. Xususan, bir guruh olimlar tahlil qilinayotgan muammoni izohlashda “qonunga xilof migratsiya” atamasini qo’llasa, boshqalari “nolegal migratsiya” tushunchasidan foydalanadi. Uchinchi guruh mualliflar esa “jinoiy migratsiya” atamasini ishlatadi (Otajonov, 2025). Bu masalada mualliflar tomonidan eng ko’p qo’llanadigan atama “qonunga xilof migratsiya” tushunchasi bo’lib, ushbu masalani o’rgangan huquqshunos olim A.N. Shkilev (2006) qonunga xilof migratsiyaga quyidagicha ta’rif beradi: “Qonunga xilof migratsiya deganda aholining jismoniy makonda ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy-siyosiy hamda milliy-demografik omillar ta’sirida xalqaro huquqning umumiy normalari va milliy qonunchilik talablarini buzgan holda hududiy ko’chishi tushuniladi”. Shuningdek, mazkur masalada E.X. Kaxbulayeva “qonunga xilof migratsiya – amaldagi xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalarini buzuvchi, milliy xavfsizlik hamda butun xalqaro hamjamiyatga xavf soluvchi ijtimoiy xavfli, jadal rivojlanayotgan jarayon” deya fikr bildirdi (Kakhbulaeva, 2011). M.I. Barannikning fikricha esa noqonuniy migratsiya shaxsning o’zga mamlakatga borishi yoki yashash manzilini tark etishi, o’z hududiga xorijiy fuqarolarni noqonuniy yo’l bilan kiritish, tranzit qilish hamda qonunga xilof ravishda boshqa mamlakatga chiqishi bilan bog’liq jarayonni anglatadi (Barannik 2002). Professor V.N. Sumarokov (2014) esa shaxsning chet elga chiqishi va ikkinchi mamlakat hududida bo’lishi qonuniy asoslarda vujudga kelgan bo’lsa-da, biroq uning mamlakatga qonunga xilof ravishda kirishini ham noqonuniy migratsiya sifatida baholaydi.

Olimlarning fikrlarini davom ettirgan holda G.Y. Dudin va S.V. Kalininalar (2013) umumiy ma’noda qonunga xilof migratsiyani mamlakatga kirish va uning hududida bo’lish qoidalarini buzgan holda davlat hududida amalga oshiriladigan har qanday harakatlanish tarzida ifodalaydi. Yana bir olim A. Fedaroka (2012) “qonunga xilof migratsiya” tushunchasini muayyan mamlakat hududiga chet el fuqarolari va fuqaroligi bo’lmagan shaxslarning kirishi, tranzit o’tishi, bo’lishi hamda undan chiqishi bo’yicha o’rnatilgan tartibni buzgan holda harakatlanishi natijasida yuzaga keladigan migratsiya sifatida ta’riflaydi.

Ushbu muammoni o’rgangan yana bir olim A.V. Suxarnikova shaxsni noqonuniy migrant deb hisoblash uchun quyidagi holatlar mavjud bo’lishini ko’rsatadi (Suxarnikova, 2010): 1) xorijiy davlat hududiga belgilangan chegara-nazorat o’tkazish punktlarini buzgan holda kirgan shaxslar; 2) amaldagi immigratsiya qoidalarini buzgan holda mamlakat hududida yashagan shaxslar; 3) noqonuniy yo’llar bilan mamlakat hududiga kirgan shaxslar doirasi.

Tadqiqotchi B.I. Egamberdiyevning fikriga ko’ra (2021), noqonuniy migratsiya O’zbekiston Respublikasi fuqarosi, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo’lmagan shaxslarning O’zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan respublika hududiga kirish, bo’lish va undan chiqish yoxud O’zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o’tish tartiblarini buzgan holda harakatlanishi sifatida ta’riflanadi.

Yuqoridagi ta’riflarga qo’shilgan hamda ularni umumlashtirgan holda, noqonuniy migratsiyaga muayyan davlat hududiga belgilangan tartiblarga zid ravishda kirish, unda noqonuniy ravishda yashash yoki qonuniy talablarga muvofiq bo’lmagan holda mehnat faoliyatini amalga oshirish, deb ta’rif berish maqsadga muvofiqdir. Zero, “noqonuniy migratsiya” tushunchasi o’zida noqonuniy kirish, mamlakat hududida noqonuniy bo’lish hamda noqonuniy faoliyatni amalga oshirish kabi holatlarni birlashtiradi. Uning ijtimoiy xavfliligi esa davlatlarning milliy xavfsizligiga, iqtisodiy barqarorligiga, ijtimoiy tizimlariga hamda demografik holatiga jiddiy ta’sir ko’rsatishi bilan izohlanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, noqonuniy migratsiya deganda, shaxslarning tegishli davlat qonunchiligini buzgan holda boshqa davlat hududiga kirishi, u yerda yashashi yoki mehnat faoliyatini amalga oshirishi tushuniladi. Xususan, ushbu tushuncha quyidagi holatlarni o'z ichiga oladi:

- 1) davlat chegarasini viza yoki ruxsatnomasiz kesib o'tish;
- 2) viza yoki yashash muddati tugagan bo'lsa-da, mamlakat hududida qolish;
- 3) qonuniy asosda kirgan bo'lsa-da, belgilangan tartibga zid ravishda faoliyat yuritish;
- 4) soxta hujjatlar asosida harakat qilish yoki yashash.

Shu o'rinda noqonuniy migratsiyaning transmilliy xavf sifatida baholanishi xususida to'xtalamiz. Noqonuniy migratsiya zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida eng murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy-huquqiy hodisalardan biri hisoblanadi. U nafaqat alohida davlatlarning milliy xavfsizligiga, balki mintaqaviy va global barqarorlikka ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois xalqaro huquq nazariyasi va amaliyotida noqonuniy migratsiya transmilliy xavf sifatida talqin qilinmoqda (Academy of Public Administration..., 2014).

Nega noqonuniy migratsiya transmilliy xavf sifatida baholanadi?

*Birinchidan*, noqonuniy migratsiyaning transmilliy tabiati uning yagona davlat hududi bilan chegaralanmasligida namoyon bo'ladi. Migratsiya oqimlari ko'pincha bir nechta davlatlar hududi orqali harakatlanadi, bunda "tranzit mamlakatlar" va "manzil mamlakatlar" o'rtasida murakkab aloqalar tizimi shakllanadi. Shu sababli noqonuniy migratsiya masalasi faqat bir davlat doirasida hal etilishi mumkin emas, balki ko'p tomonlama xalqaro hamkorlikni talab qiladi (Abdullayev, 2023).

*Ikkinchidan*, noqonuniy migratsiya xavfsizlik bilan bevosita bog'liqdir. U terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, odam savdosi, giyohvand moddalar kontrabandasi kabi boshqa transmilliy jinoyatlar bilan uzviy ravishda chirmashib ketgan (Paliniyozova, 2024). BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi (2000) va uning protokollarida mazkur masala alohida qayd etilgan. Shu nuqtayi nazardan, noqonuniy migratsiya faqat mehnat bozori yoki ijtimoiy masalalar bilan cheklanmay, balki kengroq xalqaro xavfsizlik kontekstida ko'rib chiqiladi.

*Uchinchidan*, noqonuniy migratsiya ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik omili sifatida ham transmilliy xususiyat kasb etadi. Migrantlarning noqonuniy ravishda joylashishi qabul qiluvchi davlatlarda mehnat bozorida "soya iqtisodiyoti"ning kuchayishiga olib keladi, soliq tizimiga zarar yetkazadi hamda ijtimoiy xizmatlar tizimiga bosimni oshiradi. Shu bilan birga, bunday jarayonlar millatlararo keskinlik va ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga ham sabab bo'lishi mumkin.

*To'rtinchidan*, noqonuniy migratsiyani transmilliy xavf sifatida baholashning huquqiy asosi xalqaro huquq normalari va davlatlar o'rtasidagi kelishuvlarda o'z ifodasini topgan. Xususan, 1990-yildagi "Migrant ishchilar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya"da, shuningdek, Yevropa Ittifoqining Shengen kelishuvlari va Dublin tizimini tartibga soluvchi hujjatlarida noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash xalqaro majburiyat sifatida belgilangan. Bu esa mazkur hodisani xalqaro-huquqiy doirada transmilliy tahdid sifatida mustahkamlaydi.

Shunday qilib, noqonuniy migratsiyaning transmilliy xavf sifatida baholanishi uch asosiy mezon bilan izohlanadi:

*birinchidan*, davlat chegaralaridan o'tuvchi murakkab va ko'p bosqichli jarayon sifatida transmilliylilik;

*ikkinchidan*, xavfsizlik, terrorizm va uyushgan jinoyatchilik bilan uzviy bog'liqligi;

*uchinchidan*, xalqaro huquqiy normalarda bunday tahdid sifatida e'tirof etilishi. Natijada, noqonuniy migratsiya milliy doiradagi ijtimoiy hodisa emas, balki global xavfsizlik va xalqaro hamkorlikni talab etuvchi transmilliy tahdid sifatida ilmiy asosga ega bo'ladi. Ya'ni, yuqoridagilardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, noqonuniy migratsiya ushbu xususiyatlarni o'zida mujassam qilgan transmilliy xavfdir.

Endi esa noqonuniy migratsiya natijasida yuzaga keladigan muammolar va ularning oqibatlarini xususida to'xtalamiz.

*Birinchidan*, noqonuniy migratsiyaning transmilliy xavfliligi, avvalo, davlatlarning milliy xavfsizligiga tahdid solishida namoyon bo'ladi. Chunki terrorizm, odam savdosi, narkotiklar kontrabandasi kabi og'ir va qabih jinoyatlar aksar hollarda aynan ushbu toifadagi shaxslar faoliyati bilan bog'liq holda sodir etilmoqda.

*Ikkinchidan*, inson huquqlarining qo'pol ravishda buzilishi hamda ushbu toifadagi shaxslarning huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoyasiz holatda qolishi mazkur muammoning eng og'riqli jihatlaridan biridir.

*Uchinchidan*, mamlakatdagi epidemiologik vaziyatning yomonlashuvi va aholi sog'lig'ining xavf ostida qolishi ham noqonuniy migratsiya bilan bog'liq muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Shu va yana boshqa bir qator noqonuniy migratsiya bilan bog'liq muammolar mavjud. Mazkur holatlardan kelib chiqib, davlatlararo hamkorlik masalalarini tahlil qilish asosida noqonuniy migratsiyaga qarshi samarali hamkorlikni rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari suramiz hamda ularni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

*birinchidan*, davlatlar o'rtasida muvofiqlashtirilgan transmilliy hamkorlikni yo'lga qo'yish va mavjud institutsional mexanizmlarni yanada kuchaytirish;

*ikkinchidan*, xalqaro doirada noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash bo'yicha yagona siyosatni ishlab chiqish va uni xalqaro amaliyotga izchil joriy etish.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining noqonuniy migratsiya sohasidagi qonunchiligi va xalqaro hamkorligi masalasiga to'xtalib o'tamiz. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng migratsiya jarayonlarini huquqiy jihatdan tartibga solish hamda noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgiladi. Qonunchilikda ushbu masalaga oid asosiy normalar quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxsning erkin harakatlanish huquqi, shuningdek, mamlakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida mazkur huquqni cheklash imkoniyati mustahkamlangan.

"Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi Qonun (2020-yil) migratsiya oqimlarini nazorat qilish hamda statistika ma'lumotlarini yig'ish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish tartibi asosan "O'zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish tartibi to'g'risida"gi nizom bilan tartibga solinadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi hamda Jinoyat kodeksida noqonuniy migratsiya, davlat chegarasini noqonuniy kesib o'tish, odam savdosi, hujjatlarni qalbakilashtirish kabi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralari belgilangan. Bundan tashqari, "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun (2008-yil, yangi tahriri 2020-yilda qabul qilingan) noqonuniy migratsiya bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda hukumat tomonidan noqonuniy migratsiyani kamaytirish, mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilish, shuningdek, fuqarolarning chet elda qonuniy

mehnat faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qator qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Xususan, “Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a‘zolarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori ushbu yo‘nalishdagi muhim normativ-huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi.

**Xalqaro-huquqiy hamkorlik.** O‘zbekiston Respublikasi noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishda xalqaro hamjamiyat bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda. Bu borada quyidagilarni alohida qayd etish mumkin.

**BMT doirasida:** O‘zbekiston BMTning odam savdosi, migratsiya va inson huquqlari bo‘yicha qator xalqaro konvensiyalariga qo‘shilgan. Jumladan, 2003-yilda Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiya va uning Odam savdosiga qarshi qo‘shimcha protokolini ratifikatsiya qilgan.

**Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT):** O‘zbekiston XMTning asosiy konvensiyalarini ratifikatsiya qilgan, biroq hozircha Migrant ishchilar to‘g‘risidagi 144-sonli konvensiyani ratifikatsiya qilmagan. Shu bilan birga, migrantlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha milliy strategiyalar ishlab chiqilmoqda.

**MDH doirasida:** O‘zbekiston MDH davlatlari bilan noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha kelishuvlar asosida hamkorlik qiladi. Ushbu hamkorlik chegaralarni qo‘riqlash, ma‘lumot almashish va qo‘shma operatsiyalar o‘tkazishni nazarda tutadi.

**Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT):** tashkilot doirasida transmilliy jinoyatchilik va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qo‘shma dasturlar amalga oshirilmoqda.

**Ikki tomonlama shartnomalar:** O‘zbekiston Rossiya, Qozog‘iston, Janubiy Koreya, BAA va boshqa davlatlar bilan mehnat migrantlarini qonuniylashtirish hamda noqonuniy migratsiyaning oldini olish bo‘yicha bitimlar tuzgan.

### **Xulosa**

Noqonuniy migratsiyaning transmilliy xavf sifatida o‘rganilishi nazariy va amaliy jihatdan uning murakkab hamda ko‘p qirrali tabiatini ochib beradi. Nazariy nuqtayi nazardan, u milliy chegaralardan tashqariga chiqadigan va xalqaro-huquqiy normalar bilan tartibga solishni talab etadigan global hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Amaliy tahlil esa bunday jarayonning davlatlar o‘rtasidagi xavfsizlik, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik hamda huquqiy tartibotga bevosita ta‘sirini yaqqol ko‘rsatadi.

## **REFERENCES**

1. Abdullayev, E. G'. (2023, December). Migratsiya: asosiy kategoriyalar va ularning mohiyati [Migration: main categories and their essence]. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi [Educational Innovation and Integration]*, 11 (6), 97–104.
2. Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan. (2014). *Milliy xavfsizlik tizimi [National security system]* (p. 190). Committee for Coordination of the Development of Science and Technology under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. Tashkent: Akademiya Publ.
3. Barannik, M. I. (2002). Kriminologicheskiye i pravovyye voprosy v bor'be s nelegal'noy migratsiey [Criminological and legal issues in the fight against illegal migration]. Vladivostok Center for the Study of Organized Crime. Vladivostok.

4. Dudin, G. U., & Kalinina, S. V. (2013). Operatsiya Nelehal'nyy mihrant. Migratsionnoye pravo [*Operation Illegal Migrant. [Migration law]*].
5. Egamberdiev, B. I. (2021). Ichki ishlar organlarining migration zharayonlariga doir faoliyatini takomilashtirish [Improving the activities of internal affairs bodies in relation to migration processes]. [Abstract of PhD Dissertation]. Tashkent.
6. Fedaroka, A. (2012). Migratsiya naseleniya: kontseptsiya, prichiny, posledstviya [Population migration: concept, causes, consequences]. *Zhurnal mezhdunarodnogo prava i mezhdunarodnykh otnosheniy* [Journal of International Law and International Relations], 4.
7. International Organization for Migration (IOM). (2022). World Migration Report. Geneva: IOM Publ.
8. Jo'rayev, Sh. A. (n.d.). Migratsiya sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati va uni takomillashtirish masalalari [Issues of prosecutorial control over the implementation of legislation in the field of migration and its improvement].
9. Kakhbulaeva, E. Kh. (2011). Kriminalisticheskie, pravovye i kriminologicheskie aspekty organizatsii nelegalnoy migratsii [Forensic, legal and criminological aspects of the organization of illegal migration]. [Abstract of PhD Dissertation]. Rostov-on-Don.
10. Makarov, M. A. (2021). Organizatsiya nelegalnoy migratsii [Organization of illegal migration]. [Master's thesis]. Krasnoyarsk.
11. Oriental Renaissance. (2025, February). Mehnat migratsiyasi bo'yicha xalqaro hamkorlik masalalari [Issues of international cooperation on labor migration]. *Innovative, Educational, Natural and Social Sciences* 5(2). [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz).
12. Otajonov, A. A. (2025). Qonunga xilof migratsiyaga qarshi kurashish: huquqiy tartibga solish va javobgarlik muammolari [Combating illegal migration: legal regulation and accountability issues] (p. 160). [Monograph]. Tashkent: Impress media Publ.
13. Paliniyozova, N. (2024). Hozirgi kunda noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishning mazmun-mohiyati [The essence of combating illegal migration today]. *Yangi O'zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali* [New Uzbekistan Journal of Scientific Research], 1(4), 4–8.
14. Rasulov, J. (2025). *Xalqaro migratsiya huquqi* [International migration law] (p. 52). Tashkent: TSUL Publ.
15. Shkilev, A. N. (2006). Migratsiya – eto prestuplenie: pravovye i kriminologicheskie aspekty [Migration is a crime: legal and criminological aspects]. [Abstract of PhD Dissertation]. Nizhny Novgorod.
16. Sukharnikova, A. V. (2010). Metodologiya rassledovaniya prestupleniy, sovershennykh v sfere organizatsii nelegal'noy migratsii [Methodology for investigating crimes committed in the field of organizing illegal migration] (p. 23). [Abstract of a Candidate's Dissertation]. Moscow.
17. Sumarokov, V.N. (2014). Nelegalnaya migratsiya kak ugroza natsionalnoy bezopasnosti Rossiyskoy Federatsii: kontseptsiya, soderzhanie, prichiny vozniknoveniya, napravleniya protivodeystviya [Illegal migration as a threat to national security of the Russian Federation: concept, content, causes, and countermeasures]. *Transport Business in Russia*, 1.
18. United Nations. (2000). United Nations Convention against Transnational Organized Crime and the Protocol against the Smuggling of Migrants by Land, Sea and Air. New York: United Nations.



Kelib tushgan / Получено / Received: 26.11.2025  
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 14.12.2025  
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.uzlawrev.2.4./BGTA8467

UDC: 343.37(045)(575.1)

## A SCIENTIFIC MODEL FOR EXAMINING THE COMPLEXITY OF CORRUPTION NETWORKS

**Ahmadjonov Murodullo Nurali ugli,**

Independent Researcher at Tashkent State University of Law,  
Assistant to the Prosecutor of Kosonsoy District, Namangan Region

ORCID: 0009-0006-4286-6752

e-mail: murodulloahmadjonov123@gmail.com

**Abstract.** *This research presents the TASP framework, designed to analyze corruption through four dimensions – Types, Activities, Sectors, and Places. Further, it examines the multifaceted nature of corruption within the public sphere, emphasizing how such practices originate, how they can be effectively measured, and the risks they pose to institutional integrity. Rather than treating corruption solely as a matter of personal misconduct or legal violation, the study conceptualizes it as a systemic and cultural phenomenon embedded within political and administrative systems. By employing the TASP framework, incidents of both actual and suspected corruption can be assessed with greater precision, enabling the formulation of appropriate preventive and corrective measures aimed at transforming unethical practices and enhancing public sector performance. Moreover, the research contributes to identifying the specific patterns, locations, and contexts in which corruption occurs, thereby clarifying areas of heightened vulnerability. Drawing on empirical findings, it ultimately shows that categorizing and comprehending corrupt behaviors in detail is essential for the development of focused and effective anti-corruption policies on the whole.*

**Keywords:** institutional integrity, policymaking process, administrative frameworks, bureaucratic structures, ethical failure

### KORRUPSION TARMOQLAR MURAKKABLIGINI O'RGANISHNING ILMIY MODELI

**Ahmadjonov Murodullo Nurali o'g'li,**

Toshkent davlat yuridik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi,

Namangan viloyati Kosonsoy tuman  
prokurorining yordamchisi

**Annotatsiya.** *Ushbu tadqiqot korrupsiyani to'rt o'lchov: turlar, faoliyat yo'nalishlari, sohalar va joylar bo'yicha o'rganishga mo'ljallangan TYSJ modelini taklif etadi. Shu bilan birga, ushbu maqolada davlat sohasidagi korrupsiyaning turli jihatlari va ko'rinishlari, uning paydo bo'lish sabablari, aniqlash usullari hamda institutsional yaxlitlikka xavf tug'dirishi o'rganilgan. Shuningdek, mazkur maqolada korrupsiyaga faqat individual xatti-harakat yoki huquqbuzarlik sifatida emas, balki siyosiy va ma'muriy tuzilmalarga asoslangan tizimli va madaniy hodisa sifatida qaralgan. Maqolada taklif etilgan TYSJ modelini qo'llash korrupsiyaning haqiqiy va taxmin qilinayotgan faktlarini yanada aniqroq baholash*

*imkonini beradi, bu esa axloqsiz amaliyotlarni o'zgartirish va davlat sektori samaradorligini oshirishga qaratilgan tegishli profilaktika va tuzatish choralarini ishlab chiqishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, tadqiqot korrupsiya namoyon bo'ladigan aniq qonuniyatlar, joylar va kontekstlarni aniqlashga yordam beradi, bu esa yuqori zaiflik zonalarini belgilash imkonini beradi. Empirik ma'lumotlarga asoslanib, muallif korrupsion xulq-atvorni batafsil tasniflash va chuqur tushunish umuman korrupsiyaga qarshi maqsadli va samarali strategiyalarni ishlab chiqish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega degan xulosaga keladi.*

**Kalit so'zlar:** *institutsional yaxlitlik, qonun ijodkorligi jarayoni, ma'muriy mexanizmlar, byurokratik tuzilmalar, axloqiy nojo'ya xatti-harakat*

## НАУЧНАЯ МОДЕЛЬ ИЗУЧЕНИЯ СЛОЖНОСТИ КОРРУПЦИОННЫХ СЕТЕЙ

**Ахмаджонов Муродулло Нурали угли,**  
самостоятельный соискатель Ташкентского государственного  
юридического университета,  
помощник прокурора Касансайского района Наманганской области

**Аннотация.** В настоящем исследовании предлагается рамочная модель TASP, предназначенная для анализа коррупции по четырём измерениям: виды, деятельность, секторы и места. Кроме того, в работе рассматривается многоаспектная природа коррупции в публичной сфере, уделяется внимание источникам её возникновения, эффективным методам измерения, а также рискам, которые она создаёт для институциональной целостности. Вместо того чтобы рассматривать коррупцию исключительно как индивидуальный проступок или правонарушение, исследование концептуализирует её как системное и культурное явление, укоренённое в политических и административных структурах. Применение модели TASP позволяет с большей точностью оценивать факты как действительной, так и предполагаемой коррупции, обеспечивая выработку адекватных профилактических и корректирующих мер, направленных на трансформацию неэтичной практики и повышение эффективности публичного сектора. Исследование способствует выявлению конкретных закономерностей, локаций и контекстов, в которых проявляется коррупция, что позволяет обозначить зоны повышенной уязвимости. Опираясь на эмпирические данные, автор приходит к выводу, что детализированная классификация и глубокое понимание коррупционного поведения имеют решающее значение для разработки целевых и результативных антикоррупционных стратегий в целом.

**Ключевые слова:** *институциональная целостность, законотворческий процесс, административные механизмы, бюрократические структуры, этический проступок*

### Introduction

Corruption remains one of the most persistent and complex barriers to sound governance. It steadily erodes public trust in state institutions, distorts the process of policymaking, and weakens the ethical foundations upon which government authority rests. Although its manifestations differ across political contexts and levels of economic development, corruption invariably damages both the credibility and operational capacity of public administration. From minor misconducts such as bribery and nepotism to large-scale exploitation of governmental systems, corrupt actions undermine respect for the rule of law and obstruct equitable social and economic advancement (Ahmadjonov, 2024).

This study examines the diverse dimensions and situational contexts of corruption within the public sector – its origins, measurable indicators, and the threats it poses to institutional

integrity. Moving beyond the narrow view that corruption is merely a personal moral failure or a breach of legal norms, the research interprets it as a structural and cultural condition deeply rooted in political and bureaucratic environments. Drawing on both theoretical insights and empirical data, the study identifies the specific dimensions of governance (individual conduct, administrative procedures, and institutional principles) that become compromised, and elucidates how such analysis can inform the formulation of more focused preventive interventions and strengthened accountability structures.

This study employs a qualitative, analytical, and comparative methodology to examine the nature, forms, and contextual dimensions of corruption within the public sector. Its primary objective is to identify the conditions that give rise to corrupt practices, determine how they can be classified and evaluated, and analyze the risks they pose to institutional integrity and the efficacy of governance. To accomplish this goal, the research combines theoretical inquiry, documentary analysis, and cross-case comparison, thereby providing a comprehensive understanding of corruption as both a systemic and context-dependent phenomenon.

### **Main part**

The findings of this study reveal that corruption in both public and private sectors is a multifaceted phenomenon operating across various levels of governance, with significant distinctions between developed and developing states. In less industrialized countries, it frequently infiltrates essential public domains such as healthcare, education, and infrastructure, resulting in the decline of social well-being and hampering economic advancement overall. Conversely, within advanced democratic systems, corruption often assumes more refined and institutionalized forms, where lobbying practices, conflicts of interest, and political patronage replace overt acts of bribery. The research sheds light on three core dimensions of corruption: events, referring to isolated actions such as bribery or document forgery; processes, involving recurrent administrative abuses like nepotism or deliberate obstruction; and cultures, representing institutional settings where unethical behavior becomes normalized. This layered framework, in turn, represents how corruption can evolve from individual misconduct into deeply rooted systemic dysfunction within public institutions (Ahmadjonov, 2025).

This research explores key aspects of public sector corruption, including its forms, the contexts of its emergence across institutional and geographical settings, approaches to its measurement, and the risks it poses to ethical governance.

In early 2013, global media drew attention to the Chinese leader's call to confront both "tigers" and "flies," a metaphor symbolizing high-level and low-level corruption, respectively. His statement emphasized the necessity of holding senior officials liable for legal violations while also addressing routine unethical acts that directly affect citizens' everyday experiences (AllahRakha, 2023).

On the other side of the world, Harvard Law Professor Lawrence Lessig, one of the foremost scholars in the study of corruption, identified two broad categories that shape the American policymaking environment. The first includes overtly illicit behaviors such as bribery, extortion, nepotism, and embezzlement that forms closely to correspond to what the Chinese leader described as "flies." The second form, far subtler yet more pervasive, manifests through the systemic dependence of legislators on campaign donors and interest groups. While such contributions seldom carry explicit demands, they often mold legislative preferences, discouraging policymakers from supporting reforms that might displease influential benefactors. According to Lessig, this type of institutional dependency distorts democratic decision-making,

not necessarily for direct monetary reward, but for the preservation of political careers and influence (Alkhodary & Saidat, 2023). Thus, corruption, in his view, originates not solely from individual immorality but from the structural arrangements of political institutions that enable undue influence. Importantly, corruption persists in both wealthy and developing societies, though its magnitude, expression, and systemic traits differ widely. In poorer nations, it typically infiltrates essential public sectors, accounting for healthcare, education, infrastructure, and environmental management. In turn, this phenomenon produces dire ramifications such as water scarcity, a black economy, illegal logging, a weakened judiciary, inequitable healthcare systems, restricted educational access, inflated defense budgets, poorly built infrastructure, and exploitative resource extraction policies (AllahRakha, 2024). These patterns illustrate how corruption can cripple governance and erode human welfare on the whole.

In contrast, in wealthier democracies, petty bribery is comparatively rare and is often met with strong public condemnation. Political scientist Michael Johnston provides a classification of “corruption syndromes” that depend on specific institutional and political contexts (Barrington, 2022). In authoritarian or weakly governed states, corruption thrives under kleptocratic regimes characterized by intimidation and the absence of checks and balances. Transitional governments, where mechanisms of accountability are underdeveloped, also present fertile ground for corrupt practices.

Meanwhile, in mature democratic systems, corruption tends to take more sophisticated forms, appearing as “influence markets,” in which wealth and access are exchanged for favorable policy outcomes, regulatory leniency, or government contracts (Carter, 2023).

Nations such as Denmark, consistently ranking among the least corrupt according to the Transparency International Corruption Perceptions Index (2024), illustrate that minor corruption is swiftly reported and penalized. Nonetheless, even in this country, high-level or “grand” corruption can persist subtly within corporate and public-private interactions (Carellini, 2023).

Traditionally, scholars distinguish three broad categories of corruption: petty, grand, and state capture. Below, we delve into the aforementioned forms of corruption.

#### *A. Petty corruption*

This type of corruption amounts to low-level officials exercising entrusted power for private gains, for instance, falsifying records for bribes, ignoring penalties in exchange for favors, or fast-tracking permits for payment, each of which, in turn, represents a betrayal of public trust.

#### *B. Grand corruption*

This form of corruption, on the other hand, constitutes high-ranking officials or political elites manipulating institutions to consolidate power or gain substantial wealth.

#### *C. State capture*

The most damaging form, state capture, occurs when external actors shape the legislative process itself to serve private interests at the cost of public interests. To be specific, this was notably observed in post-Soviet Russia during the 1990s, when privatization, natural resource concessions, and tax reforms were systematically engineered to reward those capable of purchasing political influence (Fazekas, 2019). Legislators facilitating these outcomes often benefited through lucrative appointments or direct payments, effectively monetizing their legislative responsibilities.

Even advanced democracies are not immune. Lobbyists routinely attempt to shape legal and policy frameworks to favor specific sectors or corporations. While lobbying can

demonstrate a legitimate facet of democratic participation, it simultaneously raises the question of whether policymaking is being indirectly purchased through donations, favors, or campaign financing (Huang & Hsiao, 2022). Collectively, these cases demonstrate that corruption, whether petty, systemic, or structural, poses serious challenges to effective governance, equitable policy formulation, and the proper functioning of public institutions.

The definition and conceptual understanding of corruption have long occupied scholars and policymakers alike. Within the civil service, it is broadly understood as the misuse of legally entrusted power for private advantages. To be clear, public officials are entrusted with specific duties and compensated to perform them under lawful authority (Knowledgehub, 2019). According to Caiden, failure to do so may involve maladministration or dereliction of duty. Yet corruption goes further, involving personal enrichment or benefits obtained beyond one's legitimate remuneration. These benefits are not always financial as they may take the form of gifts, preferential treatment, travel opportunities, or favors such as securing a relative's admission into a prestigious institution without proper qualifications (McAllister & Pietsch, 2012).

Motivations behind corrupt behavior are varied. Some individuals act out of loyalty to superiors or solidarity with colleagues, while others are driven by greed, pressure, or necessity. In developing economies, however, underpaid civil servants may resort to corruption as a means of financial survival. Corruption can also serve as an expression of patronage, used to reward allies, friends, or family members. In certain organizations, unethical practices become normalized, forming an institutional culture that tolerates or even encourages misconduct. In other cases, corruption emerges opportunistically (OECD, 2023). Some police officers, health inspectors, or other officials may accept bribes to ignore violations, for example. Such participation may be mutually agreed upon or coercive, depending on whether individuals willingly collude or are extorted.

Despite its ubiquity, corruption remains notoriously difficult to define with precision. Legislative frameworks and academic definitions often struggle to capture its full complexity. It encompasses a broad spectrum of misconduct, including bribery, extortion, favoritism, cronyism, abuse of discretion, and the misuse of confidential information. These behaviors occur across numerous functions, consisting of personnel appointments, procurement, regulatory oversight, licensing, and span sectors such as health, taxation, justice, and energy (Parliamentary Assembly, 2024). Moreover, corruption manifests differently across regions and institutional settings, from municipal departments to national agencies.

To address this complexity, the TASP framework representing Types, Activities, Sectors, and Places provides a systematic model for analyzing corruption in the public sphere. Rather than employing the term "corruption" as a catch-all concept, researchers can apply this framework to categorize and interpret specific corrupt acts with greater clarity as a whole (Salter, 2010). From a risk management perspective, identifying where corruption arises and how it operates is essential for developing preventive and corrective mechanisms. In practice, corruption may occur at the level of events (isolated acts), processes (repeated misconduct), or cultures (institutionalized tolerance of unethical behavior).

Events include singular incidents such as bribery, falsification of documents, or deliberate negligence, as observed in several corruption-prone countries. Processes refer to recurring patterns of misuse, such as favoritism in recruitment, contract manipulation, or the obstruction of justice. Frequently, corruption of both events and processes emerges during the implementation phase of policy, when officials exercise their authority for personal gains. Culture, in contrast, represents systemic corruption, including an institutional or political



environment in which unethical conduct is normalized and perpetuated through weak leadership or a lack of accountability. Assessing corruption, in turn, presents significant methodological challenges, making it one of the most complex fields in governance research. Nonetheless, measurement remains crucially vital for two key reasons below (Schachter, 2022).

First, aggregate indicators help determine how faithfully a government upholds its social contract with citizens. When embezzlement, bribery, and extortion are prevalent, when public projects primarily serve private interests, when corporations secure advantages through unlawful payments, and when justice is inconsistently applied, these factors collectively signal higher levels of corruption than in societies where such behavior is rare.

Second, understanding the scope and character of corruption within a particular context helps policymakers design appropriate preventive and corrective strategies.

Official data on corruption, however, are inherently limited. Because such acts are secretive and mutually beneficial, neither party has an incentive to disclose them. Even when cases surface, they may be prosecuted under alternative legal classifications, accounting for fraud, breach of duty, or extortion. This leads to underreporting and misclassification, complicating efforts to distinguish genuine corruption from administrative failures. Given its hidden character, most corruption indicators rely heavily on perception – based data, reflecting how individuals believe corruption occurs rather than recording verifiable instances. These indicators act as proxies, offering insight into public sentiment but not necessarily into actual incidence rates (Yakovlev, 2023). As administrative quantification of corruption remains nearly impossible, most existing indices capture levels of concern or suspicion rather than empirically confirmed wrongdoing. Consequently, surveys based purely on perception without corroborating evidence, official reports, or legal cases provide only partial understanding of the real extent and gravity of corruption within a given society.

### **Conclusion**

To conclude, a review of empirical findings yields several invaluable insights. When corruption becomes embedded within institutional culture, it distorts policymaking and results in profound governance failures. Such occurrences are considered especially intolerable in advanced democracies, where they frequently evolve into major political controversies. Citizens expect honesty and accountability from their leaders, and when those in power either engage in or condone corrupt behavior, their legitimacy and public confidence quickly erode. At the level of policy implementation, both individual conduct and administrative mechanisms can be undermined. Even when the monetary benefits for the perpetrators or the financial losses to the state appear minor, the resulting erosion of institutional credibility and public trust is severe.

Empirical research indicates that in relatively efficient bureaucratic systems, conventional forms of corruption such as bribery, embezzlement, or extortion are no longer the most visible or pervasive issues. Instead, more nuanced practices like conflicts of interest, favoritism in hiring, and the misuse of confidential information have become increasingly prevalent. Yet, despite this shift, bribery continues to represent one of the most enduring and damaging threats to effective governance.

Addressing deeply rooted corrupt cultures demands the reinforcement of broad, system-wide integrity mechanisms. Conversely, corruption confined to specific events or administrative processes can be mitigated through targeted integrity reforms and context-specific preventive strategies. In this context, the TASP framework serves as a catalyst for the growth of integrity in a particular country.

## REFERENCES

1. Ahmadjonov, M. (2024). Anti-Corruption and Compliance Control: Legal Literacy among Lawyers and Law Students. *International Journal of Law and Policy*, 8, 52–67. <https://doi.org/10.59022/ijlp.145>
2. Ahmadjonov, M. (2025, March). The Impact of corruption factors in public administration. *Review of law sciences*, 9(11), 66–74. <https://review.tsul.uz/2025/04/04/davlat-boshqaruviga-korrupsiyaviy-omillarning-tasiri/>
3. AllahRakha, N. (2023). The impacts of Artificial Intelligence (AI) on business and its regulatory challenges. *International Journal of Law and Policy*, 1, 25–48. <https://doi.org/10.59022/ijlp.23>
4. AllahRakha, N. (2024). Global perspectives on cybercrime legislation. *Journal of Infrastructure, Policy and Development*, 8, 106–131. <https://doi.org/10.24294/jipd.v8i10.6007>
5. Alkhodary, A., & Saidat, Z. (2023). Examining the Impact of E-Governance on the Performance of Corporations: A Case Study of Companies in Jordan. *Information Sciences Letters*, 26. <https://doi.org/10.30525/2256-0742/2021-7-5-235-242>
6. Barrington, M. (2022). The Social Bases of Obedience and Revolt. *International Journal of Law and Policy*, 13, 22–35. <https://doi.org/10.59022/ijlp.154>
7. Carter, L. Y. (2023). Analyzing e-government design science artifacts: A systematic literature review. *International Journal of Information Management*, 11. 75–92. <https://doi.org/10.1016/j.ijinfomgt.2021.102430D>
8. Cardellini, L. (2023). Sovereignty beyond Borders: Unraveling the Enigma of Airspace and Outer Space Interplay. *International Journal of Law and Policy*, 9. <https://doi.org/10.59022/ijlp.201>
9. Fazekas, K. L. (2019). Perils of development funding: The tale of EU Funds and grand corruption in Central and Eastern Europe. *Regulation and Governance*, 17, 52–73. <https://doi.org/10.1111/rego.121>
10. Huang, C., & Hsiao, L. (2022). Effect of Applying Case Method to Anti-Corruption Education on Learning Motivation and Learning Effectiveness. *Revista de Cercetare Si Interventie Sociala*, 23. <https://doi.org/10.33788/rcis.73.17>
11. Knowledgehub. (2019). *Anticorruption Policies in Georgia, Moldova and Ukraine* (pp. 28–35). <https://knowledgehub.transparency.org/assets/uploads/Anti-corruptionpolicies>
12. McAllister, J. & Pietsch, A. G. (2012). *ANU poll: Perceptions of corruption and ethical conduct* (p. 7). <http://politicsir.cass.anu.edu.au/polls-and-surveys/anupoll>
13. OECD. (2023). Collusion and corruption in public procurement No. 6, pp. 103–117. <https://www.oecd.org/daf/competition/46235884>
14. Parliamentary Assembly. (2024). Promoting Integrity to Tackle Political Corruption No. 9 pp. 51–66. <https://assembly.coe.int/nw/xml/XRef/Xref-XML2HTMLN.asp?fileid=23930>
15. Salter, M. (2010). Lawful but corrupt: Gaming and the problem of institutional corruption in the private sector. *Harvard Business School*, 14. [http://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract\\_id=1726004](http://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=1726004)
16. Schachter, H. L. (2022). E-participation Opportunities and the Ambiguous Role of Corruption: A Model of Municipal Responsiveness to Sociopolitical Factors. *Public Administration Review*, 79, 10–28. <https://doi.org/10.1111/puar.13049>
17. Yakovlev, E. Zh. (2023). State capture: From Yeltsin to Putin. CEFIR/NES Working Paper series Working Paper No. 942006. *Centre for Economic and Financial Research at New Economic School*, 2. [http://www.cefir.ru/ezhuravskaya/research/Yakovlev\\_Zhuravskaya\\_Capture\\_Yeltsin\\_Putin.pdf](http://www.cefir.ru/ezhuravskaya/research/Yakovlev_Zhuravskaya_Capture_Yeltsin_Putin.pdf)

**O'ZBEKISTON  
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIY JURNAL  
2025-YIL 4-SON

**ОБЗОР  
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА  
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
2025 ГОД № 4

**UZBEKISTAN  
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL  
2025 ISSUE 4

VOLUME 2 / ISSUE 4 / 2025

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.2.4.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.